MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR



Yurt BAYROG'IN O'PGAN O'G'LONLAR...

VATANPARVAR

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN

WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 4-SENTABR
№36 (3202)

Qasamyod

VATAN BAYROG‘INI

“O‘zbekiston Respublikasiga, xalqimga va Prezidentimga bir umr sodiq bo‘lishga, Vatanimning mustaqilligini, uning sarhadlarini, ona xalqimning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarini so‘nggi nafasimgacha himoya qilaman!”

Bu so‘zlar shunchaki aytilmaydi: ko‘ksida Vatan orini tutgan, yelkasida xalq dardini ko‘targanlar, bor-yo‘g‘ini shu zamin uchun fido aylashga tayyor turgan er yigitning yurak so‘zlari bu... “Quruqlikda, suvda, havoda, har qanday sharoitda o‘z burchimni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman!”

Boshini baland ko‘targan bahodirlarning avvalo o‘zi, vijdoni oldidagi qasam bu! Har qanday vaziyatga duch kelishidan qat’i nazar, shu zaminni, Vatan sarhadlarini asrash uchun qabul qilingan qaror ortidagi ontdir bu!

Ba’zi so‘zlar bor – aytiladi va unutiladi. Ba’zi so‘zlar esa inson umri davomida uning ortidan ergashib, ko‘ksini iftixorga to‘ldirib yuradi. Vatanga qasamyod ham xuddi shunday maqomdadir.

Darhaqiqat, Vatanga qasamyod faqat harbiy libos kiygan askarning so‘zi emas, balki shu tuproq, shu xalqqa daxldorman degan har bir insonning muqaddas burchidir. Olim ilmi bilan, dehqon hosili bilan, cho‘pon chorvasi bilan ona zamin oldidagi chin farzandlik vazifasini ado etadi.

Erta tongdan Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘zgacha qiyofaga kirdi. Farzandini yurt himoyasiga yo‘llagan ota-onalar qo‘llarida dasta-dasta gullar, ko‘ksida faxr-u iftixor, ko‘zlarida sevinch yoshlari yiltillagancha jigarbandiga qo‘shilib qasamyod so‘zlarini takrorlayotganiga guvoh bo‘lasiz. Kechagina tetapoya bo‘lgan bolakay bugun Vatan tinchligini himoya qilish vazifani o‘z zimmasiga olmoqda.







Ana shunday ezgu maqsad va yuksak mas’uliyatni his qilib, katta yo‘lga chiqqan birinchi bosqich kursantlari O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti saf maydonida yaqinlari, ota-onasi va do‘stlari qarshisida “Vatanga qasamyod” qabul qildi.

Tantanali tadbirda mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zolari, harbiy xizmatchilar, ota-onalar va kursantlar ishtirok etdi.

Shundan so‘ng viqor bilan turgan kursantlar qasamyod qabul qilishga kirishdi. Shuni alohida



Ushbu jarayon haqidagi videorolikni “QR code” orqali tomosha qilishingiz mumkin

O‘PGAN O‘G‘LONLAR...











ta’kidlash joizki, bu galgi “Vatanga qasamyod” marosimi mutlaqo yangicha ruh va ko‘rinishda tashkil etildi. Bu, chin ma’noda, milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan o‘zgarish va islohotlarning, harbiy xizmatni zamonaviy talablar asosida tashkil etish borasidagi yangicha yondashuvlarning yorqin ifodasi bo‘ldi.

Aytish kerakki, avvallari kursantlar “Vatanga qasamyod”ni yakka-yakka qabul qilgan bo‘lsa, joriy yildan boshlab bu jamoaviy tarzda amaliyotga joriy etildi. Yangilangan ko‘rinishdagi ushbu qasamyod nafaqat tashqi shakl, balki mazmunan o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. Vatan himoyasi avvalo hamjihatlik, birdamlik va yagona maqsad yo‘lida yelkadosh bo‘lishni talab etadi. Shu ma’noda yigitlik ahdining ko‘plashib qabul qilinishi yigitlarning yagona saf, yagona maqsad va yagona Vatan g‘oyasi atrofida birlashganini ifodalovchi ramziy ma’noga ega bo‘ldi.

So‘zga chiqqanlar bugungi tinch, osoyishta hayotni asrash, xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida bel bog‘lagan azamatlarni chin dildan qutlar ekan, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan so‘nggi yillarda boshqa sohalar singari milliy armiyamizda ham olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yurt posbonlari uchun yaratilayotgan qulaylik va sharoitlar har qachongidan ham ko‘proq o‘z mevasini berayotganini misollarda keltirib o‘tdi.

Shu kuni Harbiy tibbiyot hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida ham kursantlik maqomiga muyassar bo‘lgan o‘g‘lonlar davlatimizning muqaddas ramzi bo‘lgan bayroqni o‘pib, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari oldida “Vatanga qasamyod” qabul qildi.

Mudofaa vazirligi rahbariyati va jamoatchilik vakillari hamda ota-onalar ko‘zlari yonib turgan bahodirlarning muqaddas ahdlashuviga guvoh bo‘ldi. So‘z olganlar yigitlarga ishonch bildirar ekan, mashaqqatli, biroq o‘ta mas’uliyatli kasblariga hamisha sodiq bo‘lishlarini, yurtning har qarich yerini asrab-avaylashlari lozimligini ta’kidladi.

Albatta, bugungi yo‘l, bugungi ishonch va mas’uliyat bo‘lajak ofitserlarni yanada g‘ayratli, kasbining asl mohiyatini yanada chuqurroq anglashga undaydi. Zotan, Vatan tinchligi uchun bedor bo‘lish, shu maqsadni dilga joylab, tong ottirish chin farzandlik burchidir.

Tahririyat

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

TINCHLIK

2026-yil 1-sentabr – xalqimiz mustaqil taraqqiyotning sharafli 35 yillik bayrami. Demak, biz 35 yillik yo‘lni sarhisob qilib, istiqlolning 36-yiliga qadam qo‘yamiz. Bu sana faqat bayram emas, vijdonga berilgan savoldir: mustaqillik bizga nima berdi va uni asrash uchun biz nima beryapmiz?

Odatda yubiley kunlari yutuqlar sanab o‘tiladi. Lekin Vatan taqdiri haqida gap ketganda quruq raqamlar kamlik qiladi. Chunki har bir natijaning ortida tanlangan yo‘l, davlat irodasi, xalqning mehnati, harbiy xizmatchining bedor kechasi va uni kutayotgan oilaning sabri bor. Shu ma’noda o‘ttiz besh yillik tinch va bunyodkor hayot tasodif emas; u mustaqil davlatning izchil strategiyasi, oqilona siyosati va milliy manfaatlarga sodiq qarorlarining samarasidir.

MUSTAQILLIK HARBIYGA NIMA BERDI?

Kimdir: “Mustaqillik harbiyga yangi bayroq, yangi qasam va milliy forma berdi”, deyishi mumkin. To‘g‘ri, ammo bu javob to‘liq emas. Mustaqillik harbiy xizmatchiga, eng avvalo, kim uchun va nima uchun xizmat qilayotganini teran anglash sharafini berdi: u endi o‘z xalqining osoyishtaligi, o‘z davlatining suvereniteti, o‘z chegaralarining daxlsizligi va o‘z Konstitutsiyasi himoyasida turadi.

Istiqlol tufayli O‘zbekiston o‘z mudofaa siyosatini milliy manfaatlar asosida belgilash, Qurolli Kuchlarni shakllantirish, milliy qo‘mondonlik maktabini yaratish va harbiy kadrlarni o‘z zaminimizda tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu harbiy xizmatning mazmunini ham o‘zgartirdi. Harbiy kiyim insonni xalqdan uzoqlashtiradigan devor emas, aksincha, uning xalq oldidagi mas’uliyatini yanada kattalashtiradigan ramzga aylandi.

Mustaqillik harbiy xizmatchiga faqat kasb emas, kamolot yo‘lini ham ochdi. Bugun u komandir, muhandis, tahlilchi, pedagog, tadqiqotchi va tarbiyachi sifatida o‘sishi mumkin. Xorijiy til, axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt, robototexnika va uchuvchisiz tizimlarni egallash – endi tor mutaxassislik emas, zamonaviy ofitser madaniyatining bir qismi. Ayni paytda davlat harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy o‘sish va munosib turmush uchun huquqiy kafolatlarni izchil takomillashtirmoqda. Bu e’tibor harbiyni nafaqat kuchli mutaxassis, balki qadr-qimmati ulug‘langan inson sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi.

QUDRAT TASODIFAN YARATILMAYDI

Kuchli armiya bir kunda qurilmaydi. Uni faqat qurol sotib olish bilan ham barpo etib bo‘lmaydi. Armiya qudrati – tahdidni oldindan ko‘ra bilish, aniq strategiya belgilash, kadrni tayyorlash, qo‘shinlarni muntazam mashq qildirish, mudofaa sanoatini rivojlantirish, raqamli boshqaruvni joriy etish va harbiy xizmatchi oilasining ishonchini mustahkamlash kabi o‘zaro bog‘liq choralarning natijasidir.

O‘zbekistonning Mudofaa doktrinasida mustaqillik, suverenitet, hududiy yaxlitlik va aholining tinch hayotini himoya qilish ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Shu bilan birga, mamlakatimiz mudofaa sohasida yetarlilik, tinchliksevarlik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga tayanadi. Demak, bizning harbiy qudratimiz tajovuz uchun emas, tinchlikni ishonchli saqlash uchun kerak.

So‘nggi yillarda qo‘shinlarga zamonaviy taktik usullar, uchuvchisiz apparatlar bo‘linmalari, himoyalangan axborot almashinuvi va raqamli boshqaruv yechimlari joriy etildi. 2026-yilning yanvardagi Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida harbiy mashg‘ulotlar soni va shiddati 1,5 barobar oshirilgani qayd etildi. Bu raqam shunchaki statistika emas. U tayyorgarlikka bo‘lgan talab, tezkor fikrlash va har qanday vaziyatda ham aholi xavfsizligini ta’minlash mas’uliyati oshganining belgisidir.

Milliy qudrat qurollar sonining o‘zi emas. U davlat strategiyasi, ilmiy tafakkur, harbiy intizom va xalq ishonchining bir nuqtada birlashishidir.

HARBIY TA’LIM – ARMIYANING AQLIY FRONTI

Qaysi armiya kuchli: quroli ko‘p armiyami yoki vaziyatni tez anglab, to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan armiyami? Bugungi dunyo bu savolga keskin javob bermoqda. Zamonaviy jang maydonida texnika muhim, ammo uning imkoniyatini natijaga aylantiradigan kuch inson tafakkuridir. Shuning uchun harbiy ta’limni modernizatsiya qilish armiyaning yangi qiyofasini shakllantirishning bosh shartiga aylandi.

2025–2026-yillarda harbiy ta’lim tizimidagi islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi: O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi, oliy harbiy ta’lim muassasalari yagona vertikal boshqaruv va uzluksiz tayyorgarlik tizimiga birlashtirildi. Yangi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari qo‘shinlarning real ehtiyoji hamda zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar saboqlari asosida yangilanmoqda. Bakalavriatda xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va sun’iy intellektni chuqur o‘rganish, qo‘mondonlik-shtab ofitserlari uchun uch bosqichli tayyorgarlik, serjantlar ta’limini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Bu o‘zgarishlar o‘quv va uslubiy sinflarning mazmuniga ham yangi talab qo‘yadi. Endi sinf faqat ma’ruza tinglanadigan xona bo‘lib qolmasligi kerak. U yerda kursant va tinglovchi vaziyatni modellashtirishi, elektron xarita bilan ishlashi, simulyatorda qaror qabul qilishi, kibertahdidni tahlil qilishi, dron yoki robotlashgan tizimning imkoniyat va cheklovlarini baholashi zarur. Uslubiy sinf esa o‘qituvchining hujjat saqlaydigan joyi emas, ilg‘or tajriba, raqamli kontent, baholash mezonlari va yangi pedagogik yechimlar ishlab chiqiladigan ijodiy laboratoriya bo‘lishi shart.

Shunday sharoitda harbiy pedagogning vazifasi ham o‘zgaradi. U ma’lumot yetkazuvchi emas, fikrni uyg‘otuvchi; tayyor javob beruvchi emas, to‘g‘ri savol qo‘yadigan; faqat nazorat qiluvchi emas, adolatli baholaydigan va shaxsiy namuna ko‘rsatadigan rahbar bo‘lishi kerak. Sun’iy intellekt o‘quv ssenariylarini yaratishi, xatolarni tahlil qilishi va individual tavsiya berishi mumkin. Lekin u ofitser vijdonini, komandir irodasini, jamoa ishonchi va Vatan oldidagi ma’naviy mas’uliyatni almashtira olmaydi.

TINCHLIK SUKUT EMAS, NATIJA

Biz tinchlikni ko‘pincha oddiy manzaralarda ko‘ramiz: maktabga shoshayotgan bolada, dalasida mehnat qilayotgan dehqonda, tungi navbatdan xotirjam qaytayotgan shifokorda, to‘y qilayotgan oilada, yangi uy qurilayotgan mahallada. Ammo shu oddiylikning o‘zi – eng katta natija. Chunki dunyoning turli nuqtalarida urush, majburiy ko‘chish, qo‘rquv va beqarorlik odatiy hayotni birzumda yo‘qqa chiqarayotgan bir paytda osoyishta tongning qadri yanada baland seziladi.



O‘Z-O‘ZIDAN KELMAYDI

Tarixiy haqiqatni chetlab o‘tishga haqqimiz yo‘q: mustaqillik yillari sinovlarga boy bo‘ldi. Sariosiyo va Uzun hududlarida terrorchilarga qarshi kurashda Vatan uchun jon bergan o‘g‘lonlarimiz, Andijondagi fojiali voqealar, chegaralarimiz va jamoat xavfsizligiga tahdid solgan boshqa og‘ir sinovlar xotiramizning og‘riqli sahifalari bo‘lib qoldi. Ularni eslash yarani qo‘zg‘ash uchun emas, tinchlikning bahosi borligini anglash uchun kerak. Yurt osoyishtaligi o‘z-o‘zidan saqlanib qolmaydi; uning ortida qasamiga sodiq insonlarning jasorati, davlat institutlarining mas’uliyati va xalqning hamjihatligi turadi.

Shu bilan birga, o‘ttiz besh yilning umumiy manzarasi – xalqimizning tinch mehnati, shahar va qishloqlarning obodligi, farzandlarning ta’limi, oilalarning ertangi kunga ishonchi va mamlakatimizning izchil taraqqiyotidir. Bu tinch hayotni faqat armiya ta’minladi, deyish ham biryoqlama bo‘lar edi. Tinchlik – mudofaa, diplomatiya, qonun ustuvorligi, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat, ma’rifat va millatlararo totuvlikning umumiy mahsuli. Armiya uning qalqoni bo‘lsa, xalq birligi mustahkam orqa frontidir.

Kelajak harbiysi komandirning irodasi, muhandisning aniqligi, olimning izlanuvchanligi, pedagogning muloqot madaniyati va fuqaroning vijdonini o‘zida birlashtirishi lozim. U bir diplom bilan cheklanmaydi; butun xizmat davomida o‘qiydi, jismoniy va ruhiy barqarorligini saqlaydi, huquqiy hamda axloqiy me’yorlarga amal qiladi. Mustaqil O‘zbekiston unga ana shunday o‘sish – o‘z Vataniga xizmat qila turib, mutaxassis va inson sifatida kamol topish imkonini berdi. Bu imkoniyatning ikkinchi nomi esa mas’uliyatdir.

Davlat strategiyasining markazida inson kapitali turgani bejiz emas. Qurol qanchalik zamonaviy bo‘lmasin, uning taqdirini inson hal qiladi. Shu bois harbiy ta’lim, ilmiy tadqiqot, pedagoglar malakasi, raqamli infratuzilma va milliy harbiy maktabni rivojlantirishga sarflangan har bir sa’y-harakat mamlakat tinchligiga kiritilgan uzoq muddatli sarmoyadir. Bizga faqat texnologiyani ishlata oladigan emas, uning oqibatini anglaydigan; faqat buyruq beradigan emas, odamlar ishonchini qozonadigan; faqat g‘alaba haqida o‘ylaydigan emas, tinchlik qadrini biladigan ofitser kerak.

Tinchlik o‘z-o‘zidan kelmaydi. Uni davlatning oqilona siyosati, armiyaning shayligi, pedagogning vijdoni va fuqaroning mas’uliyati birgalikda barpo etadi.

Mustaqillik bayrami arafasida qalbimizda ikki tuyg‘u yonma-yon turishi kerak: **shukronalik** va **mas’uliyat**.

Shukronalik – ozod Vatan, tinch xonadon, o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilash huquqi uchun.

Mas’uliyat – ana shu ne’matlarni farzandlarimizga yanada mustahkam, yanada obod va yanada xavfsiz holda yetkazish uchun.

Bugungi osoyishta hayotimiz uchun Vatan himoyasi yo‘lida jon fido qilgan qahramonlar xotirasiga, safda turgan harbiy xizmatchilarga, ularni tarbiyalayotgan ustozlarga, sabr bilan kutayotgan oilalarga va bir tan-u bir jon bo‘lib mehnat qilayotgan xalqimizga minnatdor bo‘laylik. Tinchlikni qadrlash uni himoya qilishga tayyor turishdan boshlanadi. Mustaqillikni sevish esa uning kelajagi uchun shaxsiy javobgarlikni his etishdan boshlanadi.

Mustaqilligimiz abadiy, tinchligimiz barqaror bo‘lsin!

Botirjon AHMADJONOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Markaz boshlig‘i,
h.f.f.d. *(PhD)*, dotsent

36-YILGA QANDAY QADAM QO‘YAMIZ?

Dunyodagi tahdidlar shakli o‘zgarmoqda: kiberhujum, axborot-psixologik ta’sir, uchuvchisiz va robotlashgan tizimlar, sun’iy intellektga asoslangan boshqaruv, iqtisodiy va texnologik bosim xavfsizlik tushunchasini kengaytirdi. Shunday ekan, istiqlolning 36-yiliga kechagi bilim bilan emas, ertangi kunga tayyor tafakkur bilan kirishimiz shart.






Shukronalik

SADOQATLILAR DOIM E’TIROFDA

Mudofaa vazirligining barcha harbiy okruglari boshqaruv apparatlarida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida bayram tadbirlari o‘tkazildi.

Jumladan, Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugning Termiz garnizonidagi harbiy qismda ham tantanalar yuqori saviyada tashkil etildi. Unda mudofaa vazirining birinchi o‘rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig‘i general-mayor Zaynobiddin Iminov ishtirok etdi.

Tadbir davomida xizmat burchini sidqidildan ado etib, safdoshlariga har tomonlama namuna bo‘lib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilarga O‘zbekiston





Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan ta’sis etilgan esdalik nishon, “Namunali xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni hamda navbatdagi harbiy unvonlar bayramona ruhda topshirildi.



Marosimda yurt o‘g‘lonlarining Vatan himoyasi yo‘lidagi fidokorona mehnati, yuksak mas’uliyati va sadoqati alohida e’tirof etildi. Bu esa e’tibor tinchlik va osoyishtaligimizni ta’minlash yo‘lida kecha-yu kunduz hushyor va sergak turgan harbiy xizmatchilar uchun yuksak sharaf, shu bilan birga yangi marralar sari intilishga munosib rag‘bat bo‘ldi.



Tadbir bayramona kuy-qo‘shiqlar bilan davom etdi.



Faxr

XIZMATIDAN RAG‘BAT TOPGANLAR

Bugun mustaqil O‘zbekiston dunyo hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida o‘z taraqqiyot yo‘lidan dadil bormoqda. Mamlakat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar va bunyodkorlik ishlari yurtimizning salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bunda har bir fuqaroning o‘z vazifasiga mas’uliyat bilan yondashishi, Vatan ravnaqi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga intilishi muhim ahamiyat kasb etadi.



Ana shunday ezgu maqsad va intilishlar ruhidagi bayram tadbirlaridan yana biri Mudofaa vazirligi markaziy apparatida ham o‘tkazildi. Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan bir guruh sportchi va murabbiylar, shuningdek soha xodimlarini munosib taqdirlashga bag‘ishlangan tantanali marosim tashkil etildi.

Unda mudofaa vaziri o‘rinbosari polkovnik Alisher Norboyev ishtirok etib, tinchlik va hurriyat ulug‘ ne’mat ekanini, uni qo‘lga kiritish yo‘lida ota-bobolarimiz qanchadan qancha mashaqqatlarni boshdan kechirganini ta’kidladi.

Darhaqiqat, bugungi dorilamon kunlarimizni asrash, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash har bir inson uchun muqaddas burch bo‘lmog‘i kerak. Zero birdamlik bor joyda xotirjamlik, xotirjamlik hukm surgan yurtda esa taraqqiyot va rivojlanish barqaror bo‘ladi.

Shu kuni Vatan ravnaqi, Qurolli Kuchlarimiz nufuzini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda xizmat vazifalarini sidqidildan ado etish yo‘lida munosib hissa qo‘shib kelayotgan harbiy sportchilar, murabbiylar va yurt o‘g‘lonlari tantanali ravishda taqdirlandi.

Jumladan, sport va harbiy sohadagi faoliyati, erishgan yutuqlari hamda xizmatdagi fidoyiligi uchun kapitan Ruslan Nuritdinov, Bektemir Meliqo‘ziyev,



katta leytenant Diyora Keldiyorova, leytenant Ulug‘bek Rashidov hamda yana bir guruh soha vakillariga “Mustaqillikning 35 yilligi” esdalik nishoni topshirildi.

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik bayrami munosabati bilan o‘tkazilgan bunday tantanalar yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, Vatan manfaatlarini himoya qilish yo‘lida sidqidildan xizmat qilayotgan insonlarning mehnatini munosib qadrlashning yorqin ifodasidir. E’tirof va rag‘bat avvalo insonga kuch va ishonch bag‘ishlab, uni yangi marralar sari undaydi. Zotan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminga sadoqat bilan xizmat qilish, yurt ravnaqi va tinchligiga munosib hissa qo‘shish har birimiz uchun nafaqat sharaf, balki yuksak mas’uliyat hamdir.



Kapitan Shohrux SAIDOV, “Vatanparvar”

Bayram shukuhi

XALQIMIZNING so'nmas g'ururi

Tinchlik – har qanday taraqqiyotning mustahkam poydevori. Boisi osuda hayot bor joyda inson o‘z orzu-maqsadlari sari dadil intiladi, farzandlari kamol topadi, bunyodkorlik ishlari avj oladi. Shu sabab yurt osoyishtaligini asrash va uni mustahkamlash har bir fuqaroning vijdoniy burchidir.















Bayram tadbirlarida istiqlolning eng ulug‘ qadriyatlaridan biri – odamlarning tinch va erkin hayot kechirishi, kelajakka ishonch bilan qarashi, milliy qadriyatlarimizning tiklangani, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni va o‘z so‘ziga ega bo‘lib borayotgani, uning sha’ni va obro‘-e’tibori, avvalo, chuqur o‘ylangan siyosiy iroda va izchil islohotlarning samarasi ekani ta’kidlandi.

Bayram shukuhi hamon ko‘chalar, maydonlar va mahallalarda hukm surmoqda. Xalqimiz qalbida Vatanga muhabbat, ertangi kunga ishonch va shukronalik tuyg‘ulari yanada yuksalmoqda. Bu shukuh, avvalo, mamlakatimizdagi tinchlik va xotirjamlikning qadrini yana bir bor chuqur his etishga undaydi.

Ayniqsa, sarhadlar xavfsizligini ta’minlash yo‘lida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning mas’uliyati beqiyos. Ular kecha-yu kunduz hushyorlik va yuksak ishtiyoq bilan o‘z vazifalarini ado etib, vatandoshlarimizning osuda hayotini ta’minlashga munosib hissa qo‘shmoqda.

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi qo‘mondonliklar va oliy harbiy ta’lim muassasalarida “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlab tashkil etilgan tantanali bayram tadbirlarida ham bu jihatlar o‘zining yorqin ifodasini topdi.

Tadbirlarda harbiy xizmatchilar, faxriylar, soha vakillari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Yurt himoyasidek sharafli va mas’uliyatli yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib kelayotgan asl azamatlar, chin farzandlar safida turgan bahodirlar va Qurolli Kuchlar xizmatchilariga ko‘krak nishonlari, qimmatbaho sovg‘alar hamda navbatdagi harbiy unvonlar tantanali tarzda topshirildi.

Kechada jarang sochgan kuy-qo‘shiqlar bayram shukuhiga yanada fayz bag‘ishladi. Harbiy orkestr jamoalarining jo‘shqin sadolari ostida yangragan Vatan va istiqlolni madh etuvchi jasorat madhiyalari yig‘ilganlar qalbida minnatdorlik, tanlagan kasbiga fidoyilik tuyg‘ularini jo‘sh urdirdi.

Ha, bugungi xotirjam kunlar bizdan tinchlikning qadriga yetish, uni asrash va kelajak avlodlarga munosib meros qilib qoldirishni talab etadi. Zero yurt osmoni musaffoligini saqlash va asrash nafaqat harbiy xizmatchilar, balki har bir fuqaroning muqaddas farzandlik vazifasidir.



Xulosa qilib aytganda, joylarda, harbiy qism va muassasalarda tashkil etilgan tantanalar barcha soha vakillarini, xususan harbiy xizmatchilar, ayniqsa, oliy harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va yuksak mas’uliyat ruhida tarbiyalash, shuningdek yurt posbonlarini o‘z xizmat burchini sidqidildan ado etishga ruhlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘z muxbirimiz



Tuhfa

YANGI ISLOHOTLAR EL XIZMATIDA

Istiqlolimizning 35 yilligi arafasida respublikamiz bo‘ylab turli tadbir va festivallar o‘tkazilib, yangi bino hamda inshootlar foydalanishga topshirilmoqda. Bu ezgu tashabbuslar yurtimizda inson qadrini yuksaltirish va munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilayotgan e’tiborning amaliy ifodasidir.

Xususan, to‘yga to‘yona sifatida Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy shaharchada Vatan o‘g‘lonlari va ularning farzandlari uchun zamonaviy futbol maydoni barpo etildi.

Yangi sport inshootining ochilish marosimida mudofaa vazirining birinchi o‘rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig‘i general-mayor Zaynobiddin Iminov, faxriylar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari ishtirok etdi.



Tadbirda so‘z olganlar mamlakatimizda yurt himoyachilarining kasbiy mahoratini oshirish, ular uchun munosib xizmat va yashash sharoitlarini yaratish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning oila a’zolari, ayniqsa, farzandlarining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sportga keng jalb qilish va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish borasida ham izchil ishlar amalga oshirilayotgani misollar asosida qayd etildi. Qolaversa, bu yerda nafaqat harbiy xizmatchilar va ularning farzandlari, balki shu hududdagi yoshlar ham yaratilgan qulayliklardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Muhimi, futbol kabi jamoaviy sport turi yoshlarda intizom, matonat, birdamlik va g‘alabaga intilish kabi fazilatlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.



Qulaylik

MUDOFAA ISHLARI BO‘LIMLARI: YUQORI BOSQICH, MUNOSIB SHAROIT

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida esa mudofaa ishlari bo‘limining barcha qulayliklarga ega, zamonaviy talablar asosida ta’mirlangan ma’muriy binosi bayram arafasida o‘z faoliyatini boshladi.

Ochilish marosimida Toshkent shahri va Yunusobod tumani hokimligi hamda Mudofaa vazirligi vakillari ishtirok etdi.

Aytish kerakki, yangi binoda ish jarayonining yo‘lga qo‘yilishi xalq



va armiyaning bir maqsad yo‘lida hamjihat ekanidan dalolat beradi. Chunki ayni shu maskanda yoshlarni mard va sadoqatli qilib tarbiyalash, ular qalbida vatanparvarlik hislarini shakllantirishga qaratilgan muhim ishlar amalga oshiriladi. Bu fikrlar tadbirda ham alohida ta’kidlandi.

Yangi bino zamonaviy kompyuter texnikalari va zarur jihozlar bilan to‘liq ta’minlangan. Ayniqsa, uning Mudofaa vazirligining yagona elektron platformasi hamda “Chaqiruv” tizimiga integratsiya qilingani xodimlar uchun qulaylik yaratib, ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.





Shuningdek, Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani mudofaa ishlari bo‘limi ham zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda to‘liq rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi. Inshootning ochilish tantanasida Sharqiy harbiy okrug mas’ul ofitserlari, tuman hokimligi vakillari hamda jamoatchilik faollari ishtirok etdi.

Endilikda mazkur binoda bir vaqtning o‘zida 350 nafargacha chaqiriluvchini qabul qilish imkoniyati



yaratildi. Bu yurt taqdiriga daxldor, tinchlikni asrash va Vatan himoyasiga qalqon bo‘lishni maqsad qilgan yoshlarni harbiy xizmatga saralash va yo‘naltirish jarayonlarini yanada qulay hamda tizimli olib borish imkonini beradi.



To‘yga to‘yona

“VATANPARVARLAR” BOG‘IDAGI OHANRABO

Ayni shukuhli kunlarda Toshkent viloyatining Bekobod shahrida ham aholi va yoshlar uchun zamonaviy va obod maskan – “Vatanparvarlar” bog‘i foydalanishga topshirildi.

Do‘stlik mahallasi hududida joylashgan mazkur bog‘ Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan barpo etildi. Tadbirning ochilish marosimida Bekobod shahri hokimi hamda Toshkent harbiy okrugi qo‘mondonligi vakillari so‘zga chiqib, yurtimiz bo‘ylab keng quloch yozgan islohot va o‘zgarishlar, yaratilayotgan imkoniyatlar xususida to‘xtalib, xalq va armiyaning bir tan-u bir jon ekanini misollar asosida ta’kidladi.

Shuningdek, ana shu tashabbuslar va bunyodkorlik ishlari yosh avlod qalbida sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilishi shubhasiz ekani qayd etildi.



Eng muhimi, aholi uchun zamonaviy va obod maskanlar barpo etish borasidagi ezgu ishlar e’tirof etildi.

Shundan so‘ng mehmonlar “Vatanparvarlar” bog‘ini ko‘zdan kechirib, bu yerda fuqarolar uchun yaratilgan sharoitlar hamda amalga oshirilgan obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdi.





Bayram dasturi harbiy xizmatchilarning ko‘rgazmali chiqishlari hamda harbiy orkestr jamoalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlarga ulanib ketdi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur obyektlar va faoliyati yo‘lga qo‘yilgan binolar nafaqat Vatan himoyachilarining jangovar shayligini yuksaltirishga, balki unib-o‘sib kelayotgan yoshlar qalbida yurtga muhabbat va sharafli kasbga qiziqishni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Kapitan Shohrux SAIDOV, “Vatanparvar”

Bugunimiz qahramonlari

“JASORAT” YO‘LI



E’tibor berdingizmi, bu galgi Ozodlik, Erk bayrami bir boshqacha shukuhli bo‘ldi. Yillar yildirim, yurtimiz mustaqillikka erishganiga ham o‘ttiz besh yil bo‘libdi. Ijtimoiy tarmoqlarda bir-biridan ta’sirchan bayram lavhalari hamon ulashilmoqda.

Shunday saodatli damlarda ayrim yurtdoshlarimizning quvonchlarini yanada ziyoda qilgan voqealar ham yuz berdi. Bular ona O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi, tinchligi, osudaligi yo‘lida fidokorona mehnat qilgan insonlarning yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlanishidir. Shunday toleyi kulgan insonlar orasida bir guruh Vatan himoyachilari ham bor. Ulardan biri katta serjant Nodirjon Xoldarov.

Mamlakatimiz Mustaqilligining 35 yilligi arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra, Nodirjon Xoldarovning Vatan himoyasi yo‘lida sidqidildan qilgan xizmatlari e’tirof etilib, davlatimizning yuksak mukofoti – “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

Bilasizmi, “Jasorat” medalining zalvarini qachon his qildim? Ancha yillar oldin maqola tayyorlash asnosida ofitserning davlat mukofoti olgan yoki olmaganiga aniqlik kiritish lozim bo‘ldi. Maqola qahramonini topish qiyin bo‘lgani uchun u bilan birmuncha vaqt O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida tahsil olgan saboqdoshlariga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keldi. Ulardan biri milliy armiyamizning yetuk ofitseri savolimga shunday javob berdi: “Opa, “Jasorat” medalini olish oson ekanmi?!” Mana shu oddiy javob-savolda mukofotning yuksak qiymati ayon bo‘lgan edi.

UNUTILMAS LAHZALAR

...Shanba kuni edi. Kechki besh yarimlar. Bayram arafasi. Kayfiyatim a’lo. Yonimda rafiqam. Kunimdan ko‘nglim to‘lib, telefonimni qo‘limga oldim. Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishni yoqtiraman. Mudofaa vazirligi saytiga kirdim. Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar ro‘yxati e’lon qilinibdi. O‘qiy boshladim. Oralarida safdosh do‘stlarim ham bo‘lishi mumkin. Shu payt... Ko‘zlarimga ishonmay, qayta o‘qidim: “Jasorat” medali, Xoldarov Nodirjon Nazirjonovich”. Tasvirlab bo‘lmas, unutilmas bir lahza. Sevinchdan ko‘zlarim namlandi. Hayajonim, quvonchlarim meni tabriklayotgan bolalarimga ko‘chdi.

Hayotimning unutilmas lahzalarini tezroq ota-onam bilan bo‘lishgim keldi. Chunki bu mukofot meni oq yuvib, oq taragan ana shu ikki aziz insonniki ham edi. Dadam, ayam, akajonimning xursandchiligini ta’riflab berolmayman.

O‘sha paytdayoq podpolkovnik Farrux Rasulov xushxabar bilan qutladi. Keyin ustozimiz podpolkovnik Shuhrat Muhitdinov, qarindoshlarim, safdosh do‘stlar, qishloqdoshlarim...

BUGUNIM ORZULARIM OYINASI

Hamma bolalar kabi bola edim. Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumanining Qorovultepa qishlog‘ida tug‘ilganman. Bolalikdan ota-onam halol mehnatga o‘rgatdi. Duolarida ham el-yurtga nafi tegadigan insonlar bo‘lib ulg‘ayishimizni so‘rashardi.

2001-yilning may oyida muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Shu davr hayotimda katta burilish yasadi. Armiya bolalik orzularimning ushalishidagi ilk qadamlar bo‘ldi. Toshkent xalqaro aeroportida muddatli harbiy xizmatni o‘tadim. Bu yerdagi intizom, mas’uliyat, safdoshlar bilan yelkama-yelka xizmat ko‘nglimdagi orzularim, niyat-maqsadlarimga hamohang edi. Shartnoma asosida davom ettirmoqchi edim. Ba’zi bir sabablarga ko‘ra, bu niyatim amalga oshmay qoldi. Uyga qaytdim. Ammo bu hayotimni armiya bilan bog‘lash niyatimdan kechganimni anglatmasdi.

2003-yilda qayta hujjat topshirdim. Omadim keldi. O‘sha yilning noyabr oyidan taqdirim Vatan xizmati bilan bog‘landi. Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Jizzax... Qayerda bo‘lsam ham burchimni yuksak mas’uliyat bilan o‘tadim. O‘tgan yillar davomida tajriba va malaka oshirishdan to‘xtamadim. Mehnat, izlanishlarim besamar ketmadi. Xizmatim bir necha bor e’tirof etildi.

Bugun bir narsani aniq bilaman: Vatan degan inson kam bo‘lmaydi!

2023, 2024, 2025-yillarni o‘zim uchun muvaffaqiyat yillari bo‘ldi, desam, nokamtarlik bo‘lmas. Inson uchun o‘z boshpanasiga ega bo‘lish ham bir baxt. Ko‘pqavatli uylardan oilamizga xonadon ajratildi.

1-oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan “Malakali ustoz” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. Bu, ehtimol, katta yutuq emasdir. Biroq men uchun yuksak sharafdir.

2025-yili katta serjant unvoni berildi.

Qorovultepa qishlog‘ida tug‘ilgan oddiy bir bola edim. Bugun katta serjant, ko‘ksimda Vatanning yuksak mukofoti!

Bu yo‘l ota-onamning duolari, oilam ishonchi, ustozlar sabog‘i, tog‘ kabi suyanchim akamning qimmatli o‘gitlari, mehnatim, sadoqatim yo‘lidir!

OILAM – TAYANCHIM

Mehr-muhabbatga qurilgan oila kishiga ruhiy quvvat beradi. Men yuqorida xizmatlarim e’tirof etilganini aytib o‘tdim. Agar ahil oilamning ruhiy madadi bo‘lmaganda menda ham yutuqlar bo‘lmasdi.

Davlatimiz tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelinmoqda. Bundan men va oila a’zolarim ham bahramandmiz. Qizim ayni kunda Sharqshunoslik universitetining 3-bosqichida tahsil olyapti. Bu ham oilamga ko‘rsatilgan e’tibor va g‘amxo‘rlikning asl namunasi. Ilm olayotgan qizimga boqib, bir ota sifatida quvonaman, ruhlanaman.

Inson baxti sevimli kasbida, unib-o‘sayotgan, kelajagi porloq farzandlarida deb bilaman.

Hatto farzandlaring ham e’tibordan chetda qolmayotganini ko‘rib, munosib javob berging keladi. Xalq ishonchini sharaf bilib, yurt yukiga yelka tutishni istaysan.

SHARAF QIYMATI

Har bir insonning hayot yo‘li bir-biridan farqli. Hech kim ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga osongina erishmaydi. Men yoshlik havolari, kuch-quvvati bilan Vatan himoyasini tanladim. Bu juda mashaqqatli yo‘l. Buni bilganim holda tanladim va hech qachon afsus chekmadim.

Bugun o‘zimdan kichik ukalarimga so‘z aytishga haqli bir yoshdaman. Qadrli yoshlar, yuksak orzular qiling, boshlagan ishingizni qanchalik qiyin bo‘lmasin, oxiriga yetkazishga intiling!

Harbiy xizmatni tanlagan yoshlar bilishlari kerakki, bu yo‘lda oson bo‘lmaydi. Harbiy kiyim juda yarashimli kiyim, erkakka alohida ko‘rk berishi ham bor gap. Shu bilan birga, unutmang, bu oddiy kiyim emas. Bu, Vatan oldidagi mas’uliyat, xalq ishonchi, xalq mehridir! Javobimiz esa sadoqat!

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Yangi o‘quv yili

“MUSTAQILLIK DARSI”NING BOSH G‘OYASI





Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida ko‘tarinki ruh bilan o‘tgan Bilimlar kuni Harbiy xavfsizlik mudofaa universitetida ham o‘zgacha shukuh bilan nishonlandi. Universitetda tashkil etilgan “Mustaqillik darsi”da mudofaa vaziri, Harbiy xavfsizlik mudofaa universiteti boshlig‘i general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov ishtirok etib, ma’ruza qildi.

Mudofaa vaziri Yangi O‘zbekistonda kechayotgan tarixiy jarayonlar, sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va ularning salmoqli natijalarini chuqur tahlil qilib, bundan 35 yil oldin xalqimizning asriy umidlari ro‘yobga chiqqani, O‘zbekiston suveren davlat sifatida o‘z taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygani, Vatan ozodligi yo‘lida jonfido qilgan buyuk bobolarimizning ezgu orzulari bugun hayotda o‘z ifodasini topib borayotganini alohida ta’kidladi.

Mamlakat osoyishtaligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashda Qurolli Kuchlarning o‘rni beqiyos ekani qayd etilib, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida armiyamiz zamonaviy aviatsiya, havo hujumidan mudofaa tizimlari, uchuvchisiz uchish komplekslari hamda eng yangi qurollar bilan ta’minlanayotgani va buning natijasida O‘zbekiston armiyasi dunyo armiyalari reytingida 5 pog‘ona yuqorilab, 145 ta davlat orasida 53-o‘ringa ko‘tarilganiga e’tibor qaratildi. Harbiy sohadagi islohotlar jarayonida keyingi yillarda armiya markaziga inson kapitali qo‘yildi. Xususan, 2025-yil harbiy ta’lim tizimi uchun muhim burilish davri bo‘ldi. Harbiy kadrlar tayyorlashning mutlaqo yangi milliy modeli yaratilib, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti ushbu tizimning markaziy bo‘g‘iniga aylandi.

Ma’ruza so‘ngida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jumladan oylik pul ta’minotini oshirish va 30 yildan ortiq xizmat qilgan harbiylarning pensiya miqdorini 100 foizga yetkazish kabi g‘amxo‘rliklar davlatimizning doimiy e’tiborida ekani e’tirof etildi. “Mustaqillik darsi” universitet shaxsiy tarkibida Vatanga muhabbat, burchga sadoqat va ertangi kunga bo‘lgan ishonch tuyg‘ularini yanada kuchaytirdi.

Bilimlar kuni

YURTIMIZNING OLTIN FONDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Bilimlar kuni munosabati bilan maktab o‘quvchilari, ustoz va murabbiylarga yo‘llagan bayram tabrigi mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e’tiborning naqadar yuksak va ustuvor ekanini yaqqol ko‘rsatib berdi. Tabrikda bilimli, zukko va tirishqoq o‘g‘il-qizlarning safi yil sayin kengayib borayotgani, ularning o‘qib-o‘rganish, IT, ijodiy izlanishlar va sportdagi dastlabki yutuqlari yurtimizning oltin fondi ekani alohida e’tirof etildi.







Bilimlar kuni poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 148-sonli umumta’lim maktabida o‘zgacha zavq-u shavq, fayz bilan boshlandi. Mustaqillikning 35 yilligi tantanalariga hamohang tarzda o‘tgan tadbirda mudofaa vaziri general-leytenant Shuhrat Xalmuxamedov ishtirok etdi. Unda Prezidentimizning bayram tabrigi o‘qib eshittirildi.

Mudofaa vaziri mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar ta’limi va tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilayotgani, o‘sib kelayotgan avlodni Yangi O‘zbekistonning eng muhim va hal qiluvchi kuchi deb e’tirof etilgani haqida so‘z yuritib, o‘quvchilar va ustozlarga samimiy tabriklar bildirdi. Katta hayajon va ezgu tilaklar ostida maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan birinchi sinf o‘quvchilariga Prezident sovg‘alari hamda o‘quv-qurollari tantanali ravishda topshirildi.

Mudofaa vaziri maktab kutubxonasi uchun yuzdan ortiq badiiy va ilmiy adabiyot sovg‘a qildi. Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansambli ijodkorlarining ona Vatan, tinchlik va sadoqatni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlari tadbirga o‘zgacha fayz ulashdi.

Bayram tantanalaridan so‘ng yangi o‘quv yilining dastlabki “Mustaqillik darsi” mashg‘uloti boshlanib, unda yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik ne’matini qadrlash hamda yurt kelajagiga daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirishning ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Furqat ERGASHEV, “Vatanparvar”

Askar talabalar





IKKI MAKTAB SABOG‘I

Unib-o‘sib kelayotgan o‘g‘il-qizlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi va jamiyatda o‘rin topishlari uchun bugun mamlakatimizda barcha sharoitlar hozir. Bu islohotlar, hatto Vatan oldidagi yigitlik burchini ado etib kelayotgan muddatli harbiy xizmatchilarni ham chetlab o‘tgani yo‘q.

2026-yil 7-apreldagi Prezident qarori bilan muddatli harbiy xizmatni o‘tashning nufuzi va jozibadorligini oshirishga qaratilgan navbatdagi vazifalar belgilandi. Mazkur hujjatda harbiy xizmatchilarning bilim olishi va oliy ta’limga intilishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim imkoniyatlar nazarda tutilgan.

Eng e’tiborli jihatlardan biri shundaki, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlarga oliy ta’limning bakalavriat bosqichi masofaviy ta’lim shakliga kirish uchun imkoniyat yaratildi. Shuningdek, bir yillik xizmatni namunali o‘tagan va qo‘mondonlik tavsiyanomasiga ega bo‘lgan o‘g‘lonlar uchun oliy ta’limga kirishda alohida imkoniyatlar belgilandi.

Islohotlar natijasi ko‘p kuttirmadi. Joriy yilning o‘zida ushbu tashabbuslar meva bera boshladi. Xususan, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ayni vaqtda muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan 938 nafar harbiy xizmatchi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga tavsiya etildi. Bu raqam ortida 938 nafar yoshning orzusi, izlanishi va maqsadi mujassam. Ularning har biri harbiy xizmat davomida Vatan oldidagi burchini ado etish bilan birga, bilim olishga ham intildi. Natijada yigitlar talabalik sari yana bir muhim qadamni muvaffaqiyatli tashladi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilar orasida zamonaviy va istiqbolli kasblarga bo‘lgan qiziqish ham tobora ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari, dasturiy injiniring, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi, iqtisodiyot, menejment, logistika va boshqa yo‘nalishlarni tanlagan yoshlar safining kengayayotgani buning yaqqol dalilidir.

Zero bugungi askar – faqatgina qurol-yarog‘ bilan sarhadlarini qo‘riqlaydigan xizmatchi emas. U zamonaviy bilimlarni egallagan, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatga ega, yurt taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan avlod vakilidir. Harbiy xizmat yigitning irodasini chiniqtirsa, ta’lim uning tafakkurini boyitadi. Bu ikki maktabning uyg‘unligi esa kelajak uchun bilimli, intizomli va vatanparvar mutaxassislarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu imkoniyatlarning amaliy ifodasini esa joriy yilda xizmat davrida talabalik maqomiga ega bo‘lgan yoshlar misolida ham ko‘rish mumkin.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiga talabalikka tavsiya etilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti muddatli harbiy xizmatchisi, oddiy askar Allayorov Komiljon Husniddin o‘g‘lini suhbatga tortib, uning fikrlariga quloq osdik.

– Harbiy xizmat davrida oliy ta’limga tavsiya etilganingizda nimalarni his etdingiz?

– Xabarni eshitganimda, albatta, juda ham quvondim. Harbiy xizmat davomida talaba bo‘lish, ikki maqsadni bir nuqtada jamlash har kimni ham avval cho‘chitsa, mevasi ko‘rina boshlagach, sevintirar ekan. Shuni alohida ta’kidlashim kerakki, xizmat menga intizomli bo‘lishni, vaqtni qadrlashni va qiyinchiliklarga sabr bilan kurashishni o‘rgatdi. Endi esa hayotimning yangi sahifasi – talabalik davri boshlanayotganidan mamnunman.

– Talabalik davridan qanday maqsadlarni kutyapsiz? Harbiy xizmatda olgan saboqlaringiz bu yo‘lda sizga tayanch bo‘la oladimi?

– Avvalo, tanlagan yo‘nalishim bo‘yicha yaxshi mutaxassis bo‘lishni istayman. Faqat diplom olish emas, balki o‘rgangan bilimlarimni kelajakda Vatanimiz taraqqiyoti uchun qo‘llashni maqsad qilganman. Harbiy xizmatda orttirgan intizom, mas’uliyat va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari o‘qish jarayonida ham menga yordam beradi, deb ayta olaman. Chunki armiya hayot maktabi. Bu yerda to‘planish, chin farzandlik burchini his etish, qisqasi, barcha tajribalar o‘zingiz bilan birga bo‘ladi. Talabalikka kelsak, bu menga imkoniyatlar eshigini yana bir bor ochilganidan darak beradi, – deydi Komiljon Allayorov.

Xuddi shunday, talabalik sari qadam qo‘yayotgan yoshlarimizdan yana biri, ayni paytda o‘z farzandlik burchini o‘tab kelayotgan, muddatli harbiy xizmatchisi, oddiy askar Namozov Mirjahonning hayratlari ham bir jahon.

– O‘tgan yili oliy ta’lim muassasalariga hujjat topshirib, o‘qishga kirolmaganman. So‘ng armiya saflariga yo‘l oldim. Bu oxirgi chora emas edi. Shunchaki, keyingi faoliyatimni ayni shu yerda davom ettirish, ustoz va komandirlar bosgan yo‘ldan yurish, muhimi, Vatan tinchligini himoya qilish uchun kuch-g‘ayratimni safarbar etishni maqsad qilgandim. Va bunga erishdim ham. Biroq omadimiz chopib, biz xizmat qilayotgan davrda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining qarorlari imzolanib, muddatli harbiy xizmat vaqtida oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirish imkoni yaratildi. Ishoning, bundan, ayniqsa kaminaning quvonchi cheksiz. Bu baxt aslida. Eng yaxshisi, yaqinlarim ham natijadan mamnun.

– Harbiy xizmatni o‘tab, endi talaba bo‘lish arafasida turibsiz. Bu ikki bosqichni qanday bog‘lagan bo‘lardingiz?

– Menimcha, harbiy xizmat insonni hayotdagi keyingi sinovlarga tayyorlaydi. Xizmat davomida tartib-intizomga rioya qilish, topshiriqni vaqtida bajarish, jamoa bilan bir maqsad yo‘lida harakat qilish kabi ko‘nikmalarni egalladim. Endi shu tajribani ta’lim olish jarayonida davom ettirmoqchiman. Harbiy xizmat men uchun hayot maktabi bo‘lgan bo‘lsa, talabalik bilim va kasb egallash maktabi bo‘ladi.

– Talabalikning ilk kunlaridan nimalarni kutyapsiz?

– Eng avvalo, yangi muhitga moslashishni va o‘zim tanlagan soha bo‘yicha chuqur bilim olish uchun harakat qilaman. Oldimga aniq maqsadlar qo‘yganman. Harbiy xizmat davrida berilgan vazifalarni qanday qilib bajargan bo‘lsam, o‘qish davrida ham ana shu mas’uliyatni unutmayman.

Darhaqiqat, harbiy xizmat va ta’lim – yoshlarning kamol topishida bir-birini to‘ldiradigan ikki muhim maktab. Harbiy xizmatda shakllangan intizom, matonat va mas’uliyat ta’lim jarayonida egallanadigan bilim va ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashsa, jamiyat uchun munosib, fidoyi va salohiyatli mutaxassislar yetishib chiqadi.

Bugun talabalik sari qadam tashlagan 938 nafar yoshning har biri o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘ygan. Ularning bugun harbiy kiyimda ado etgan sharafli burchi, ertaga chuqur bilim olish, foydali kasbni egallash va kelajakda Vatan ravnaqiga xizmat qilish istagi bilan orzulari mustahkamlanmoqda.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”





Asror RO‘ZIBOYEV

Milliy o‘zlik



QILICHDAN O‘TKIR KALOM

yoxud zamonaviy targ‘ibot va propaganda

So‘z birla o‘lukni tirgizib bo‘lur,
Til birla tirikni o‘ldurub bo‘lur.
Alisher NAVOIY

BUXORO MINBARIDAN MOSKVA PLAKATIGACHA

XIII asrning ilk o‘n yilligi. Buxoro osmonida kulfat chaqmoqlari yaltirab turgan kun. Mo‘g‘ul istilosi arafasida shaharning Jome masjidiga olim, imom va savdogarlar yig‘ildi. Yiroq yurtlardan kelgan bir begona – kichikroq otdan tushib, minbarga ko‘tarildi va tarjimon orqali qisqa, biroq dahshatli jumlalarni aytib bordi: “Ey xaloyiq, bilinglar, siz katta gunohlar qilgansiz. Agar mendan buning isbotini so‘rasangiz, aytamanki – men Xudoning jazosiman”. Bu odam Chingizxon edi. Va bu nutq shahar olingach, qarshilik sindirilgach, tirik qolganlarga qaratib aytilgandi.

Ammo e’tibor bering, Chingizxon uchun asl jang bu nutqdan ham, otlarining ilk tuyog‘i Movarounnahr tuprog‘iga tekkunga qadar ham avvalroq boshlangandi. Boshqa qurol – so‘z bilan. Uning qo‘shini yetib kelmasidan ilgari, oldindan uning shafqatsizligini va yengib bo‘lmasligi haqidagi mish-mishlar o‘rmon yong‘iniday tarqardi. Ayrim shaharlar – xususan Zarnuq – mo‘g‘ullar haqidagi ana shu dahshatli xabarlardan so‘ng darvozalarini jangsiz ochib bergan. Ularning irodasi jang boshlanmasidan ilgari, so‘z orqali sindirilgandi.

Endi uch asr sakrab, boshqa bir manzaraga ko‘z tashlaylik. Ikkinchi jahon urushi yillari. Sovuq va qorli Moskva ko‘chalarida oddiy bir plakat osilib turibdi. Unda yoshi ulg‘aygan bir kishining o‘tkir nigohi va tik ko‘rsatkich barmog‘i – hozirgina sizni tanlagan kabi yo‘naltirilgan. Ostida birgina jumla: “Ona Vatan seni kutmoqda!” Na qo‘shin, na qurol. Ammo bu plakat millionlab yoshlarni harbiy komissarlik eshigi oldiga olib keldi. Bir tasvir, bir jumla va odam o‘zini shaxsan chaqirilgandek his qildi. Olomon ichida yashirina olmadi.

Ana shu ikki manzara – Buxoro masjididagi qo‘rquv va Moskva ko‘chalari plakatidagi burch tuyg‘usi – targ‘ibotning qudrati va mohiyatini yaqqol namoyon etdi. Targ‘ibot – insonlarni muayyan g‘oyaga ishontirish, ularni harakatga undash san’ati. U qilichdan keskinroq, chunki odamning tanasiga emas, ongi va qalbiga ta’sir o‘tkazadi. Aynan shu bois u eng nozik, eng mas’uliyatli sohalardan biridir.

TARG‘IBOT VA PROPAGANDA: IKKI YO‘L O‘RTASIDA

Ko‘pchilik “targ‘ibot” va “propaganda” so‘zlarini bir ma’noda qo‘llab keladi. Ammo bular orasidagi farq – oyni tunning qorong‘iligidan ajratadigan nur kabi asosli va halokatli. Propaganda so‘zi lotincha “propagare” – tarqatmoq, yoymoq so‘zidan kelib chiqqan. Dastlab u hech qanday yomon ma’no tashimagan: 1622-yilda Rim papasi Grigoriy XV katolik dinini boshqa yurtlarda tarqatish uchun maxsus kengash tuzib, uni “Congregatio de Propaganda Fide – E’tiqodni tarqatish jamiyati” deb atagan.

Bu so‘z salbiy ma’noga XX asr urushlari davrida ko‘chdi. O‘sha yillarda propaganda ommaviy ongni boshqarish, odamlarni aldash va manipulyatsiya quroliga aylandi. Shundan buyon ko‘pchilik xayolida propaganda deganda yolg‘on, aldov va yashirin maqsad namoyon bo‘ladi.

Bugungi fanda propaganda deganda, odatda, bir tomonlama saralab olingan, hissiyotga urg‘u beruvchi va ko‘pincha manbasi yashirin axborot ta’siri tushuniladi. Uning maqsadi – insonni o‘ylantirish emas, balki uni kerakli xulosaga majburan yetaklash. Targ‘ibot esa boshqa vazifani o‘taydi. Bu jamiyatga milliy g‘oya, ma’naviy qadriyat va bunyodkor mafkurani ochiq, halol va dalilga tayangan holda yetkazishdir. Targ‘ibotning maqsadi aldash emas, ishontirish; majburlash emas, o‘ylash uchun asos berishdir.

Farqni bir jumlada aytadigan bo‘lsak: propaganda odamni boshqaradigan qo‘g‘irchoq deb biladi, targ‘ibot esa uni mulohaza yurita oladigan aqlli inson deb qaraydi. Ana shu qarash, ikkisi orasidagi g‘oyat katta axloqiy chegaradir.

Ularni amalda qanday ajratish mumkin? To‘rtta oddiy mezon bor: **birinchisi** – manbaning ochiqligi; **ikkinchisi** – dalilga munosabat; **uchinchisi** – hissiyot va aql nisbati; **to‘rtinchisi** – natija. Targ‘ibotda manba oshkor, dalil ko‘zlanadi, hissiyot aqlni kuchaytiradi va natija odamni o‘ylashga chorlashdir. Propagandada esa bor narsa teskari: manba yashirin, dalil buzilgan, hissiyot aqlning o‘rnini bosadi, natija esa o‘ylamay ergashishdir.

JADID ZIYOLILARI – MILLIY TARG‘IBOTNING OLTIN MAKTABI

Milliy targ‘ibot tarixida biz uchun eng oliy va samimiy o‘rnak jadid ma’rifatparvarligidir. XX asr boshlari. Turkiston jaholat, qoloqlik va mustamlaka ikkiboshligi ichida. Mana shunday og‘ir sharoitda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvarqori va ularning maslakdoshlari xalqni uyg‘otishga bel bog‘ladi. Ularning qo‘lida na hokimiyat, na katta boylik, na qurol bor edi. Ularda faqat birgina qudratli vosita – o‘tkir, lekin halol so‘z mavjud edi. Va, aynan shu so‘z vositasida ular butun bir millatning ongini o‘zgartirishga erishdi.

Xususan, Behbudiy “Oyna” jurnalini chop etdi, gazeta va teatr imkoniyatlaridan foydalanib xalqqa yetib bordi. Maslakdoshlari esa yangi usul maktablarini ochdi, darsliklar yozdi, o‘lmas badiiy asarlar yaratdi. Ular quruq va’z aytish bilan cheklanmay, zamonaviy kitoblarni, yangi ta’lim maskanlarini – g‘oyalarini amalda ko‘rsatib berdi. Eng muhimi, ular o‘zlari targ‘ib qilgan tamoyillarga sodiq holda umr kechirdi. Yozganlari va aytganlari bilan hayotlari bir bo‘ldi.

Jadid targ‘ibotining to‘rtta o‘zgarmas tamoyili bugungi targ‘ibotchi uchun ham birinchi darajali darsdir.

Birinchisi – ma’rifatni qalqon deb bilish. Jadidlar jamiyatni har qanday buzg‘unchi ta’sirdan himoya qilishning eng ishonchli yo‘li – bilim ekaniga qat’iy ishongan. Nodon kishini chalg‘itish oson, bilimli insonni soxta g‘oyalarga ergashtirish mushkuldir.

Ikkinchisi – an’ana va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish. Jadidlar milliy va diniy qadriyatlardan voz kechib, ko‘r-ko‘rona G‘arb turmush tarziga ergashishga chaqirmadi. Aksincha, milliy o‘zlikni mahkam saqlagan holda dunyoviy ilm-fanni egallashga da’vat etdi. An’anani rad etgan targ‘ibot ildizsiz, zamonni rad etgani esa kuchsizdir.



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Uchinchisi – teng va hurmatli muloqot madaniyati. Jadid matbuotidagi “birodarlar”, “vatandoshlar”, “millatdoshlar” kabi murojaat shakllari ularning xalqqa yuqoridan turib emas, teng suhbatdosh sifatida yuzlanganini ko‘rsatadi. Ular ommani nodon deb emas, ma’nan uyg‘otilishi lozim bo‘lgan aziz birodar deb bildi. Odamlar aynan shu hurmat va samimiyatni his etib, ularga astoydil ishondi.

To‘rtinchisi – amaliy natija va shaxsiy namuna. Ular quruq da’vatlar bilan cheklanmay, o‘z mablag‘lari hisobidan maktablar ochdi, kitoblar nashr etdi, gazetalar chiqardi. Ular avval o‘zlari amalda ko‘rsatib, so‘ngra xalqni ortidan ergashtirdi. Ularga bo‘lgan ishonch so‘zdan emas, amaldan tug‘ildi.



RAQAMLI MAYDON: YANGI TAHDID, ESKI KASHF

Bugun targ‘ibot maydoni butunlay o‘zgargan. Minbar o‘rnini ekran, gazeta o‘rnini ijtimoiy tarmoq, uzun ma’ruzalar o‘rnini esa o‘n besh soniyalik videolar egalladi. Biroq bu shunchaki vosita almashuvi emas targ‘ibotning tabiatidagi tub evrilishdir. Ushbu o‘zgarishni anglamagan targ‘ibotchi, garchi bilimli va halol bo‘lsa-da, bugungi yoshlar e’tiborini qozona olmaydi.

Tadqiqotlar ana shu evrilishlardan birini, ayniqsa aniq ko‘rsatdiki, Massachusetts texnologiya instituti *(MIT)* olimlari ijtimoiy tarmoqlardagi ko‘p yillik axborot oqimini o‘rganib, yolg‘on axborot haqiqatga qaraganda 6 barobar tezroq va kengroq auditoriyaga yetib borishini isbotladi. Sababi oddiy, soxta xabarlar hayratlanarli, qo‘rqinchli yoki g‘azab uyg‘otuvchi unsurlarga boy bo‘ladi. Kuchli his-tuyg‘u esa insonni teran fikrlashdan ko‘ra, ma’lumotni darhol boshqalarga ulashishga undaydi.

Zamonaviy axborot maydonida uch xil buzg‘unchi axborot turli niqoblarda keladi. **Dezinformatsiya** – qasddan va g‘arazli niyatda tarqatiladigan soxta axborot. **Misinformatsiya** – yolg‘onligini bilmasdan, “foydasi tegar” deb samimiy tarzda yoyilayotgan xato ma’lumot. **Malinformatsiya** esa eng ayyor shakli: ma’lumotning o‘zi haqiqat, biroq u begona kontekstda, zarar yetkazish maqsadida taqdim etiladi. Masalan, o‘n yil avval sodir bo‘lgan voqeani “hozir yuz berdi” deb qayta tarqatish – mana shu malinformatsiyaning yorqin namunasi.



Mazkur maydonda mutlaqo yangi qurollar ham paydo bo‘ldi. “Trollar fabrikasi” – markazdan boshqariladigan yuzlab, minglab soxta akkauntlar majmuasi. Ular bir masala atrofida sun’iy ravishda “ko‘pchilik fikri”ni yaratadi. Oddiy foydalanuvchi buni haqiqiy omma fikri sifatida qabul qilib, o‘z qarashini shu sun’iy oqimga moslaydi. Sun’iy intellekt yordamidagi “deepfake” texnologiyasi esa real insonning qiyofasi va ovozini aynan takrorlaydi. Ko‘z va quloq endi, ishonchli guvoh emas.

Ana shunday murakkab zamonda himoyaning eng mustahkam qal’asi – texnik vosita yo dastur emas, insonning mustaqil tafakkuri va tarbiyali tahliliy ongi. Hech qanday raqamli filtr yolg‘onni mantiqiy fikrlaydigan, savol beradigan va tekshiradigan odamdek to‘sa olmaydi. Shu sabab zamonaviy targ‘ibotchining bosh vazifasi – jamiyatda mediasavodxonlik, mantiqiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish.

YETTI OLTIN QOIDA

O‘tmish saboqlari, zamonaviy tadqiqot natijalari va hayotiy tajriba bugungi targ‘ibotchi uchun yetti asosiy tamoyilni kun tartibiga qo‘yadi.

Birinchisi – mafkuraviy hushyorlik. Xavf hech qachon ochiq kelmaydi – u ko‘ngilochar kontent yoki oddiy mish-mish niqobi ostida kirib keladi. Hushyorlik esa har narsadan shubhalanish emas, balki tahlilga tayangan anglashdir.

Ikkinchisi – milliy manfaat va xolislik mutanosibligi. Haqiqatni birinchi bo‘lib, xolis aytish kerak. Agar auditoriya muammoni rasmiy manbadan emas, tashqaridan eshitsa, ishonch yo‘qoladi.

Uchinchisi – axborotga tanqidiy yondashuv. Har qanday xabarni tarqatishdan avval o‘zingizga uch savol bering: muallifi kim? Dalil bormi? Maqsad nima? Ayniqsa, kuchli hissiyot uyg‘otuvchi xabarlarga o‘ta ehtiyotkorlik bilan yondashing.

To‘rtinchisi – “yumshoq kuch” imkoniyatidan foydalanish. Taqiqlash emas, samimiy muloqot va ijobiy namuna. Targ‘ibot samarasi – auditoriyaning “chiroyli gapirdi” deb emas, “to‘g‘ri aytdi” deyishida.

Beshinchisi – raqamli muhitni egallash. Auditoriya qayerda bo‘lsa, targ‘ibot ham o‘sha yerda bo‘lishi shart. Barcha tarmoqlarga sochilib ketmasdan, loaqal bittasini – Telegram yoki YouTube kabi professional darajada egallash lozim.

Oltinchisi – yoshlar psixologiyasini hisobga olish. Yoshlar passiv tinglovchi emas – axborot almashinuvining teng huquqli ishtirokchisi. Ularga yuqoridan turib gapiradigan targ‘ibotchi ilk daqiqasidanoq rad etiladi. Savollar – muvaffaqiyatli aloqa belgisi, sukunat esa qiziqish yo‘qligidan dalolat.

Yettinchisi – kommunikativ mas’uliyat. Axborot maydonidagi eng qimmatli resurs – ishonch. Bilim va ko‘nikmani qayta egallash mumkin, ammo auditoriya ishonchi bir marta yo‘qolsa, uni qayta tiklash nihoyatda mushkul. “Bu masalani aniqlab, keyin javob beraman” deyolish zaiflik emas, kasbiy yetuklikning yorqin belgisidir.

SO‘NGGI SO‘Z O‘RNIDA...

Buxoro masjididagi qo‘rquvdan boshlab, urush yillari ritorikasidan, jadid ma’rifatidan o‘tib, bugungi algoritmlargacha bo‘lgan uzun yo‘l bitta muhim haqiqatni tasdiqlaydi. Targ‘ibotning vositalari qanchalik yangilanmasin va texniklashmasin, uning poydevori va asosiy kuchi – ishonch bo‘lib qolaveradi. Chingizxon qo‘rquv orqali bo‘ysundirgan bo‘lsa, jadidlar ma’rifat va shaxsiy namuna bilan xalqni ezgu ishlarga birlashtirgan.

Demak, davrlar va texnologiyalar o‘zgarsa-da, targ‘ibotning bosh mohiyati – inson qalbiga yetib borish, unda ishonch uyg‘otish va mushtarak g‘oya atrofida birlashtirishdan iborat. Ayniqsa, axborot hujumlari avj olgan zamonda jamiyatning ichdan yemirilmasligi, manqurtlikka yuz tutmasligi uchun uning ma’naviy immuniteti va milliy xotirasi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chingiz Aytmatov o‘zining “Asrga tatigulik kun” romanida manqurtga qaratib, “Kimsan? Otang kim? Isming nima?” degan achchiq savollarni bejiz o‘rtaga tashlamagan. Tarixini, kimligini va ildizlarini unutgan inson har qanday yot g‘oyaga oson taslim bo‘ladi.

Shu bois xalqning milliy o‘zligini anglatish, ma’naviy immunitetini va tarixiy xotirasini mustahkamlash – bugungi targ‘ibotchining eng oliy vazifasi. Qotib qolgan aqida emas, har kungi faoliyatda qo‘llanadigan va tajriba bilan boyitiladigan tirik vositadir. Zero targ‘ibot bir marta o‘rganib qo‘yiladigan bilim emas, umrbod sayqal beriladigan mas’uliyatli san’atdir.

Xulosa qilib aytganda, insonlar qalbida ezgulikka ishonch uyg‘otish va jamiyatni yorug‘ kelajak sari birlashtirishdan ko‘ra sharafliroq burch yo‘q.

Nigora HUSANOVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi

Unutilmas kun







SARHAD POSBONLARIGA YANGI XIZMAT XONADONLARI TOPSHIRILDI

Toshkent va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining chegara hududlarida o‘z xizmat faoliyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun Mustaqilligimizning 35 yilligi bayrami munosabati bilan barpo etilgan zamonaviy xizmat uylari foydalanishga topshirildi.

E’TIBOR VA G‘AMXO‘RLIKNING AMALIY IFODASI

Bayram munosabati bilan Toshkent va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining chegara hududlarida sarhad posbonlari va ularning oila a’zolari uchun zamonaviy loyihalar asosida qurilgan yangi xizmat xonadonlari foydalanishga topshirildi. Barcha zarur qulayliklar yaratilgan, sifatli qurilish materiallaridan barpo etilgan shinam uylar harbiy oilalar uchun chinakam bayram tuhfasi bo‘ldi.

Tantanali ochilish marosimlarida Davlat xavfsizlik xizmati mas’ul xodimlari, mahalliy hokimiyat organlari vakillari, harbiy xizmatchilar, nuroniylar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi. Mazkur tadbirlarda mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a’zolariga munosib turmush sharoitlarini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekani yana bir bor amaliy ifodasini topdi.

Zero xizmat xonadonlari – shunchaki turarjoy emas. U sarhaddagi mas’uliyatli xizmatning mustahkam tayanchi, harbiy oilaning ertangi kunga ishonchi va farzandlar kamoloti uchun yaratilgan barqaror muhitdir. Chegarachi uzoq va murakkab vazifalarni bajarar ekan, oilasining xavfsiz va farovon xonadonda yashayotganini his etishi uning xizmatga bo‘lgan shijoatiga qo‘shimcha kuch bag‘ishlaydi. Shu ma’noda, har bir yangi xonadon sarhadlarimiz mustahkamligiga qo‘shilgan ijtimoiy hissa, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

OILA XOTIRJAMLIGI — XIZMATNING MUSTAHKAM TAYANCHI

Marosimda so‘z olganlar mamlakatimiz chegaralarini qo‘riqlashdek mas’uliyatli va sharafli vazifani sidqidildan ado etayotgan mard o‘g‘lonlarning fidoyiligini yuksak baholadi. Nuroniylar harbiyning oilasi tinch, uyi obod va ko‘ngli xotirjam bo‘lsa, uning Vatanga sadoqati ham, xizmatga bo‘lgan g‘ayrat-shijoati ham yanada yuksalishini ta’kidlab, yangi xonadon sohiblariga fayz-u baraka tiladi.

Harbiy xizmatchilar xizmat xonadonlarining kalitlarini tantanali ravishda qabul qilib olar ekan ko‘zlari quvonchga, qalbi esa ishonchga to‘ldi.

Ota-onalarning shukronalikka yo‘g‘rilgan so‘zlari, farzandlarning quvnoq kulgisi va nuroniylarning duolari marosimga o‘zgacha fayz bag‘ishladi. Bunday damlarda xonadon kaliti nafaqat yangi manzil eshigini, balki ezgu orzular, xotirjam hayot va yangi rejalar sari yo‘lni ham ochayotgandek tuyuladi.

Asli qashqadaryolik III darajali serjant Shahzod Norboyev ham o‘z xonadoniga ega bo‘lganidan mamnun.

– Avvalo, barchangizni Mustaqilligimizning 35 yillik bayrami bilan muborakbod etaman. Bugungi kun biz uchun unutilmas va tarixiy voqeaga aylandi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun barpo etilgan zamonaviy xizmat xonadonlari nafaqat turarjoy, balki bizga bildirilayotgan yuksak ishonch va g‘amxo‘rlikning amaliy namunasidir. Chegarachi uchun oilasining tinch, farovon va issiq uyda yashayotganidan ortiq baxt yo‘q. Vazifani bajarib qaytganingizda farzandlaringizning quvnoq kulgisini eshitish, oilaviy xotirjamlikni ko‘rish, qalbingizga cheksiz kuch bag‘ishlaydi. Davlat sizni qo‘llab-quvvatlab, oilangizni tashvishdan xoli qilsa, butun e’tiboringizni Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga, sarhad chizig‘ida hushyorlikni bir soniya ham yo‘qotmaslikka qarata olasiz. Bugun Chegara qo‘shinlarining moddiy-texnik bazasi, harbiylarning tayyorgarligi va ijtimoiy himoyasi yuksak darajaga ko‘tarilmoqda. Biz bu ishonchni oqlash uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etamiz. Yaratilgan sharoitlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoniga barcha harbiy xizmatchilar nomidan cheksiz minnatdorlik bildiraman.

YANGI XONADON — YANGI MAS’ULIYAT

Harbiy xizmatchini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash faqat uning bugungi ehtiyojini qondirish bilan cheklanmaydi. Bu professional armiya nufuzini oshirish, yoshlarda harbiy kasbga hurmatni kuchaytirish va xizmat davomiyligini ta’minlashga xizmat qiladigan uzoqni ko‘zlagan yondashuvdir. Sarhad hududlarida zamonaviy uy-joylar barpo etilishi esa bu maskanlarda ijtimoiy muhitning yanada barqaror bo‘lishiga, harbiylar va mahalliy aholi o‘rtasidagi hamjihatlikning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Darhaqiqat, chegara xavfsizligi faqat zamonaviy texnika, puxta tayyorgarlik yoki sergaklik bilangina ta’minlanmaydi. Uning ortida mustahkam oila, xotirjam xonadon, farzandlar kelajagiga ishonch va jamiyatning harbiyga nisbatan hurmati ham turadi. Shu bois harbiy oilalar uchun yaratilayotgan har bir qulaylik Vatan mudofaa qudratini mustahkamlovchi ma’naviy va ijtimoiy omil sifatida qadrlidir.

Yangi uy sohiblari ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikka javoban Vatan himoyasi yo‘lidagi mas’uliyatni yanada teran his etishlarini, xizmat vazifalarini sidqidildan bajarib, yurtimiz tinchligi va taraqqiyoti uchun bor kuch-g‘ayratini ayamasliklarini bildirdi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida foydalanishga topshirilgan mazkur xizmat xonadonlari inson qadri ulug‘langan, tinchlik va osoyishtalik eng oliy ne’mat sifatida e’zozlangan Yangi O‘zbekistonda sarhad posbonlariga ko‘rsatilayotgan hurmat-ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi. Bu xonadonlarda yangraydigan har bir bola kulgisi, oq fotiha va shukronalik sadosi Vatan himoyachisining qalbidagi sadoqat tuyg‘usini yanada mustahkamlashi shubhasiz.

Kapitan Erkin YODGOROV
DXX Chegara qo‘shinlari







Ko‘mak

MARKAZIY HARBIY OKRUGDAN XABARLAR

35 YIL – 35 XAYRLI TASHABBUS

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida yurtimizda ezgulik, inson qadri va aholiga g‘amxo‘rlikni yanada yuksaltirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy tadbirlar izchil davom etmoqda.

Shu ezgu maqsadlar doirasida Jizzax shahridagi Yoshlar innovatsion markazida “Mahalla” xayriya jamoat fondi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, yoshlar ishlari boshqarmasi, Jizzax garnizonidagi harbiy qism hamkorligida amalga oshirilayotgan “35 yil – 35 xayrli tashabbus” loyihasi ham aholi, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tashkil etilgan tadbirlar davomida ishtirokchilar uchun turli ma’naviy-ma’rifiy suhbatlar, madaniy-ma’rifiy tarbiyaviy uchrashuvlar o‘tkazildi. Ayniqsa, yangi o‘quv yili arafasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlariga ko‘rsatilayotgan amaliy ko‘mak tadbirning eng muhim jihatlaridan biri bo‘ldi. Ularning ta’lim olishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ota-onalarning moddiy yukini yengillashtirish maqsadida bolalarga yangi o‘quv yili uchun maktab formalari va zarur o‘quv anjomlari beg‘araz tarqatildi.

Ana shunday xayrli tashabbuslar, shubhasiz jamiyatimizda mehr-oqibat va insonparvarlik qadriyatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Festival

JIZZAXDA VATANPARVARLIK FESTIVALI



Jizzax shahridagi “O‘rda” ekologik bog‘ida mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan vatanparvarlik festivali yuqori saviyada tashkil etildi.

Unda Jizzax garnizoni harbiy xizmatchilari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi viloyati kengashi, Nuroniy faxriylar kengashi hamda harbiy orkestr jamoasi ishtirok etdi. Festival davomida namoyish etilgan faxriy qorovulning ko‘rgazmali chiqishlari yig‘ilganlarda yuqori kayfiyat uyg‘otgan bo‘lsa, harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan el-yurtga muhabbat va istiqlol g‘oyalarini mujassam etgan jozibali kuy-qo‘shiqlari barchaga o‘zgacha bayram shukuhini ulashdi.

Mazkur ma’rifiy-madaniy tadbir yoshlarning qalbida milliy g‘urur, Vatanga bo‘lgan sadoqat va cheksiz hurmat tuyg‘ularini yanada yuksaltirishga hamda ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashga xizmat qildi.

Ko‘tarinkilik

GULOBOD AMFITEATRIDA BAYRAM TANTANALARI

Samarqand tumanidagi Gulobod amfiteatrida ham yurtimiz mustaqilligining 35 yillik shonli sanasiga bag‘ishlangan keng miqyosdagi bayram tantanalari ko‘tarinki ruhda davom etdi.

Unda Samarqand garnizonida joylashgan harbiy qism harbiy xizmatchilari, faxriylar, Yoshlar ishlari agentligi faollari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tantanalar davomida harbiy orkestr jamoasining jarangdor kuy-qo‘shiqlari yangrab, bayramona muhitga yanada ko‘tarinkilik baxsh etdi. Faxriy qorovul jamoasining yuksak mahorat bilan namoyish etgan ko‘rgazmali chiqishlari esa tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Gulobod amfiteatrida yangragan kuy-qo‘shiqlar, harbiy xizmatchilarning bayramona tuhfalari istiqlol ayyomiga o‘ziga xos fayz bag‘ishladi.



Muloqot

RAHBAR VA YOSHLAR UCHRASHUVI



Bayram munosabati bilan Jizzax garnizonidagi harbiy qismda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan rahbar va yoshlar uchrashuvi tashkil etildi.

Jizzax garnizoni boshlig‘i tashabbusi bilan o‘tkazilgan tadbirda Sharof Rashidov tumani “Mardi maydon” maktabining o‘quvchi-yoshlari ishtirok etdi.

Samimiy va ochiq muloqot ruhida o‘tgan uchrashuv davomida mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shuningdek oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish tartiblari haqida batafsil ma’lumot berildi. Jizzax garnizoni boshlig‘i o‘quvchilarni qiziqtirgan savollariga atroflicha javob qaytardi.

Shundan so‘ng yoshlar harbiy qismda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi. Jumladan, zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar ko‘rgazmasi namoyish etildi. Shuningdek, zamonaviy panoramali o‘qish xonasida yoshlar uchun qiziqarli amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilindi.

Kun davomida yoshlar uchun garnizon boshlig‘ining tashabbusi bilan maxsus tushlik dasturxoni yozildi.

Uchrashuv yakunida faollik ko‘rsatgan yoshlardan biriga garnizon boshlig‘i tomonidan “Armiya bilan hamqadam, hamnafas, hamfikr” nomli maxsus kitob-albom esdalik sovg‘asi sifatida taqdim etildi.

Ma’naviyat

KATTAQO‘RG‘ONDA “MA’NAVIYAT KARVONI”

Vatanimiz ravnaqi va tinchligini ta’minlash yo‘lida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularga bayram kayfiyatini ulashish hamda Mustaqillik bayramini ko‘tarinki ruhda nishonlash maqsadida Kattaqo‘rg‘on garnizonida madaniy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yagona hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida o‘tkazilgan bayram tadbirida Kattaqo‘rg‘on shahri hokimligi hamda “Ma’naviyat karvoni” vakillari hamkorlik qildi.

Tadbir davomida “Ma’naviyat karvoni” a’zolari tomonidan Vatanimiz tarixi, mamlakatimizning bugungi kundagi yutuqlari, shuningdek davlatimiz tomonidan Qurolli Kuchlarimizga qaratilayotgan yuksak e‘tibor haqida mazmunli va qiziqarli suhbatlar o‘tkazildi.

Shuningdek, san‘atkorlar tomonidan ijro etilgan milliy kuy-qo‘shiqlar hamda vatanparvarlik ruhidagi taronalar harbiy xizmatchilarga bayramona kayfiyat ulashib, ularga kuch-g‘ayrat va shijoat bag‘ishladi.



Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati

Qahramonlar nomi barhayot







MARDLAR BIR KUNIDA ming yil yashaydi

Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimiz harbiy aviatsiya safini mahalliy kadrlar bilan to‘ldirish borasida qator qiyinchiliklarga duch kelgandi. Chunki milliy armiyamiz saflarida harbiy uchuvchi, texnik-mexanik yoki muhandis barmoq bilan sanarli edi. Shuning uchun 1994-yil 20-iyunda Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti tashkil etilib, mahalliy kadrlarga bo‘lgan talabning yechimi bosqichma-bosqich hal etib borildi.

Marhum mayor Shavkat Mirzayev yuqorida ta’kidlangan barmoq bilan sanarli darajadagi texnik-mexaniklardan biri edi. U harbiy vertolyotlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘z ishining ustasi bo‘lish bilan birga, ish jarayonida bilganlarini shogirdlariga tinmay o‘rgatishdan charchamasdi. O‘zi ham bo‘sh vaqtlarida harbiy aviatsiya yangiliklarini tezda o‘zlashtirib olar va bundan g‘urur hissini tuygan holda yutuqlarini oilasidagilar bilan bo‘lishgisi kelardi. Shuning uchun komandirlarning ruxsati bilan ora-orada farzandlariga vertolyotlar parvozi tomoshasini ko‘rsatib turardi. O‘sha paytlar qahramonimizning xayolidan nimalar kechgani bizga qorong‘i. Balki o‘g‘li Shahzodning kelajakda harbiy uchuvchi bo‘lishini orzu qilgandir. Yoki bo‘lmasa, oila davrasida kamnamoligi bois vaziyatdan shu tarzda unumli foydalanmoqchi bo‘lgandir.

Shavkat Mirzayev 1968-yil 10-mayda Buxoro viloyatida tavallud topgan. 1985–1990-yillar Kiyev fuqaro aviatsiyasi muhandislari institutining filiali sanalgan Slavyansk fuqaro aviatsiyasi texnika bilim yurtida tahsil olib, texnik-mexanik mutaxassisligi bo‘yicha diplomga ega bo‘ldi. O‘qish paytida ko‘ngillilar safida Chernobil AES fojialarini bartaraf etish ishlarida qatnashgan. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillarida milliy armiyamiz safida, harbiy aviatsiya sohasida ish boshladi. Xizmati davomida oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lg‘usi ofitserlarga ustozlik qildi. Qisqa umr ko‘rishiga qaramay, ikki nafar farzandning mehribon otasi, tajribali ustoz sifatida ko‘pchilik uchun o‘rnak bo‘ladigan nom qoldirdi. Afsuski, 2007-yil 4-mart kuni o‘z burchini bajarish chog‘ida og‘ir jarohat olgani sababli 39 yoshida vafot etdi.

Mayor Shavkat Mirzayevni tanigan bilganlar uni o‘ta oliyjanob qalb egasi sifatida yodga olishadi. Otasi Rizo Mirzayev ham mahalla-ko‘yda kenja o‘g‘lining kelajakda harbiy uchuvchi bo‘lishini maqtanib, g‘ururlanib yurardi. Shogirdlari esa Vatanga bo‘lgan sadoqatining cheksizligini e’tirof etishadi. Qahramonimiz xizmat burchini o‘tash bilan birga oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarga ustozlik qilganini ta’kidlash o‘rinli. O‘g‘li Shahzod otasining har bir insonda uchraydigan kuchli jihatlarini yodga olar ekan, harbiy ofitserga xos bir so‘zli, tartib-intizomni birinchi o‘ringa qo‘yadigan, kimningdir ko‘nglini og‘ritib qo‘yishdan qo‘rqishi esa nozik jihatlaridan biri bo‘lganini e’tirof etadi.

– Umr yo‘ldoshim bilan o‘zbekona udumlarimizdan biri sovchilik orqali turmush qurganmiz, – deydi Nasiba Qambarova. “Kuyov bo‘lmish uchuvchi ekan...” Onamning o‘shanda roziligimni so‘rash uchun aytgan ushbu jumlalari hamon

Mardlar bir kunida ming yil yashaydi.
Ming yil yashar nomard bitmas armoni.

yodimdan chiqmaydi. Harbiy xizmatchi, buning ustiga uchuvchi. Taqdir menga orzumdagi insonni ro‘baro‘ qilgandi. Xullas keyingi jarayonlar tezlashib ketib, ko‘p o‘tmay, to‘yimiz bo‘ldi. Turmush o‘rtog‘imning xizmat faoliyati tufayli biz ham unga qo‘shilib, mamlakatimizning turli viloyatlarida yashadik. Qiyinchiliklarga qaramay, baxtli edik. Orada ikki farzandli bo‘ldik. Aka-ukalari, opa-singillariga juda mehribon edi. Ishi tufayli ularning to‘y, bayramlariga bora olmasa, albatta, sovg‘a-salom bilan bizni Buxoroga jo‘natardi. Farzandlarimning otasi vafot etganda o‘g‘lim 15, qizim esa 11 yoshda edi. Oilamiz tayanchidan judo bo‘lish menga ham, farzandlarimga ham qattiq ta’sir qildi. Shuning uchun bir paytlar vertolyotlar parvozidan zavqlangan Shahzod otasining izidan bormaganining sababini o‘spirin yoshida olgan qalb jarohati tufayli deb o‘ylayman. O‘shanda ikki nafar voyaga yetmagan bolani tarbiyalash ayol boshimga qanchalik qiyin ekanini ko‘z oldimga keltirdim. Ammo hamma narsaga vaqt da’vo bo‘lar ekan. Mana ular ulg‘ayishdi, oilali bo‘lishdi. Davlatimiz, Mudofaa vazirligi tomonidan berilayotgan e’tibor, g‘amxo‘rlik ham o‘ksik qalbimizga malham bo‘lganini alohida ta’kidlamoqchiman. Qizim davlat tomonidan berilgan imtiyoz tufayli oliy ma’lumotli bo‘ladi.

O‘zbekistonda Vatan himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning xonadoniga tashrif buyurish va ularning oilalaridan xabar olish davlat darajasidagi muhim tadbir hisoblanadi. Bunday tashriflar odatda, barcha kuch tuzilmalari, jumladan Mudofaa vazirligi, IIV, FVV va Milliy gvardiya rahbariyati hamda joylardagi hokimliklar tomonidan muntazam tashkil etiladi.

Bu kabi tadbirlar har yili – 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik tantanasi va boshqa bayramlar arafasida muntazam tashkillashtirilib kelinadi. Tashriflar davomida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ota-onasi, farzandlarini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va davolanishiga ko‘maklashish, uy-joy ta’miri, kommunal masalalar yoki kundalik ehtiyojlarini hal qilish, farzandlarining o‘qishi va ishga joylashishiga ko‘maklashish, eng asosiysi – marhum harbiylarning oila a’zolariga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ularning yolg‘iz emasligini his ettirish, qahramonlar ta’lim olgan maktablarda yoki yashagan mahallasida xotira burchaklari yoxud uchrashuvlar tashkil etish kabi ezgu ishlar amalga oshiriladi.

Mustaqilligimizning 35 yillik bayrami arafasida bir guruh harbiy xizmatchilar, faxriylar marhum mayor Shavkat Mirzayev xonadonida ham bo‘lishdi.

Tashrif chog‘ida mehmonlar tomonidan qahramonning hayot yo‘li haqidagi xotiralar yodga olindi. Harbiy xizmatchilar kelgusida ham ushbu oila bilan hamqadam va ko‘makdosh ekanliklarini izhor etdi.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”





Biz korruptsiyaga qarshimiz!

Jamiyat ishonchiga URILAYOTGAN BOLTA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida korrupsiya davlat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan hamda jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdidlardan biri ekanini ta’kidladi. Murojaatnomada 2026-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “favqulodda holat” e’lon qilinishi, davlat organlarida komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, davlat mablag‘lari va resurslaridan foydalanishda shaxsiy javobgarlikni oshirish vazifalari belgilandi.

O‘zbekiston qonunchiligida korrupsiya tushunchasi huquqiy jihatdan belgilangan bo‘lib, 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun bu boradagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy huquqiy poydevorlaridan biri hisoblanadi.

KORRUPSIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI

Korrupsiyaning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda iqtisodiy, institutsional, huquqiy, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy omillarga ajratish mumkin.

Birinchi omil – iqtisodiy sabablar

Moddiy ehtiyoj, daromad va xarajatlar o‘rtasidagi nomutanosiblik, boylikka haddan tashqari intilish ayrim shaxslarni korrupsiyaviy harakatlarga undashi mumkin.

Ikkinchi omil – institutsional sabablar

Davlat organlarida qaror qabul qilish jarayonlarining yetarlicha ochiq emasligi, nazorat mexanizmlarining zaifligi, vakolatlarning haddan tashqari markazlashuvi, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish mexanizmlarining samarasizligi korrupsiyaviy xavflarni oshirishi mumkin.

Uchinchi omil — ijtimoiy-madaniy sabablar

Jamiyatda “ish bitishi uchun tanish kerak”, “sovg‘a bermasang ishing bitmaydi”, “hamma shunday qiladi” kabi qarashlarning shakllanishi korrupsiyani oddiy holat sifatida qabul qilish xavfini yuzaga keltiradi. Eng xavflisi ham ana shu holatdir.

To‘rtinchi omil – shaxsiy-ma’naviy sabablar

Xudbinlik, ochko‘zlik, mansabparastlik, molparastlik, shuhratparastlik, huquqiy nigilizm, vijdon va mas’uliyat hissining zaifligi korrupsiyaning shaxsiy omillarini tashkil etadi.

“Halollik vaksinasi” nima?

“Halollik vaksinasi” tibbiy tushuncha emas, balki korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma’naviy-huquqiy profilaktikaning shartli ifodasidir.

Vaksina inson organizmida muayyan kasallikka nisbatan immunitet shakllantirgani kabi, halollik tarbiyasi ham inson ongida korrupsiyaga nisbatan axloqiy, huquqiy va psixologik immunitet shakllantirishi kerak.

Bunday immunitet halol mehnat qilish, qonunga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘z vakolatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ymaslik, pora berish va olishni rad etish, manfaatlar to‘qnashuvini yashirmaslik, jamoat va davlat mulkiga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish, korrupsiyaviy holatlarga befarq bo‘lmaslik, qonunbuzarlik haqida xabar berish madaniyatini shakllantirish, “menga tegishli emas” degan befarqlikdan voz kechish kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi.



Sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

KIMLAR “HALOLLIK VAKSINASI” BILAN EMLANISHI KERAK?

Davlat xizmatchilari

Birinchi navbatda, davlat vakolatiga ega bo‘lgan shaxslarda halollik va shaxsiy mas’uliyat yuqori darajada bo‘lishi zarur.

Yoshlar

Yoshlarda bolalik va o‘smirlik davridan boshlab halol mehnat, adolat, qonunga hurmat va shaxsiy mas’uliyat qadriyatlarini shakllantirish zarur.

Tadbirkorlar

Tadbirkor o‘z ishini “ishni tezlashtirish uchun pul berish” yoki “tanish orqali masalani hal qilish” tamoyiliga emas, qonuniy raqobat va ochiqlik tamoyiliga asoslashi lozim.

Ta’lim tizimi va pedagoglar

O‘quvchi va talabaga qonunni yodlatishdan ko‘ra, qonunga amal qilish madaniyatini shakllantirish muhim.

2026-YIL: JAZODAN PROFILAKTIKAGACHA

2026-yilda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishga alohida urg‘u berilishi korrupsiyaga qarshi siyosatning profilaktik va institutsional mexanizmlarini yanada kuchaytirish zaruratini ko‘rsatdi.

Prezident Murojaatnomasida barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas’ul rahbar o‘rinbosari lavozimini joriy etish, Hisob palatasi vakillari faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda davlat mablag‘lari va resurslaridan foydalanishda shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish vazifalari belgilandi.

Bu vazifalar korrupsiyaga qarshi kurashishda “huquqbuzarlik sodir bo‘lgandan keyin jazolash” modelidan “xavfni oldindan aniqlash va bartaraf etish” modeliga o‘tish muhimligini ko‘rsatadi.

2026-yil 9-iyunda sudlarda komplayens nazorat tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham belgilanib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, ishga qabul qilishda ochiq tanlov va meritokratiya tamoyillarini kuchaytirish kabi vazifalar ilgari surildi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA JAMOATCHILIKNING O‘RNI

Jamoatchilik nazorati, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari, faol fuqarolar va professional jamoalar korrupsiyaning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Jamoatchilik korrupsiyaga nisbatan befarq bo‘lmasa, korrupsiyaviy munosabatlarning yashirin qolishi qiyinlashadi. Shuning uchun jamiyatda korrupsiya haqida xabar berishni “chaqimchilik” emas, balki fuqarolik mas’uliyati sifatida qabul qilish madaniyatini shakllantirish zarur.

AMALIY TAKLIFLAR

Korrupsiyaga qarshi “halollik vaksinasi”ni jamiyatda shakllantirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Halollik ta’limini maktabgacha ta’limdan boshlash.
2. Oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi amaliy kurslarni kuchaytirish.
3. Davlat xizmatchilari uchun doimiy etika va komplayens treninglarini joriy etish.
4. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish.
5. Raqamlashtirishni kengaytirish.
6. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
7. Halol mehnatni rag‘batlantirish.
8. “Korrupsiyaga murosasiz muhit”ni shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaning ildizlari insonning dunyoqarashi, jamiyatdagi munosabatlar, davlat boshqaruvi mexanizmlari, iqtisodiy omillar va huquqiy madaniyat bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li jazo va profilaktikani bir-biri bilan uyg‘unlashtirishdir. Buning uchun biz “Halollik vaksinasi” bilan emlanmog‘imiz zarur. Davlat xizmatchisi ham, tadbirkor ham, pedagog ham, talaba ham, rahbar ham, oddiy fuqaro ham ushbu “vaksina”ga muhtoj. Chunki korrupsiyaga qarshi haqiqiy immunitet qonun matnida emas, balki insonning vijdoni, huquqiy madaniyati, halol mehnati va jamiyat oldidagi mas’uliyatida shakllanadi.

Podpolkovnik Sardorbek ABDUSAMATOV,
Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti bo‘lim boshlig‘i

Ildam qadamlar

YANA BIR O‘QUV AVTODROMI ISHGA TUSHDI

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti Navoiy viloyati kengashi tasarrufidagi Navbahor tumani o‘quv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan yangi o‘quv avtodromi foydalanishga topshirildi.





Tantanali ochilish marosimida “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, viloyat mutasaddilari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbir doirasida tashkilotning viloyat kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga 6 ta “Onix”, 4 ta “KIA Sonet”, 2 ta “Foton” rusumli avtomobillar va 4 ta mototsikl foydalanishga topshirildi.

Endilikda ushbu yengil va yuk o‘quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida “A”, “B”, “BC” va “C” toifalari bo‘yicha o‘qiyotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadi.

Mazkur zamonaviy avtodrom va yangi avtomobillar yoshlarga sifatli ta’lim berish, amaliy malakasini oshirish va ularda yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.

“Rahbar va yoshlar” uchrashuvi

ZAMON BILAN HAMNAFAS

Yoshlik – inson hayotidagi eng shijoatli, orzu-maqsadlarga boy va katta imkoniyatlar sari dadil qadam tashlanadigan betakror davr. Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, iqtidori va salohiyatini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ezgu tashabbus va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.





Shu maqsadda Buxoro viloyatida “Yoshlar kuni” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

G‘ijduvon tumanida o‘tkazilgan tadbirda H. Botirov yig‘ilganlarni davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi bilan qutlab, istiqlol tengdoshi hisoblangan “Vatanparvar” tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to‘g‘risida ma’lumot berdi.

U o‘z nutqida “Vatanparvar” tashkilotida barchaga ma’lum bo‘lgan haydovchilik kasbidan tashqari vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektriklar ham tayyorlanib kelinayotganini ta’kidladi. Shu bilan birga, tashkilotda yuk ortuvchi transport, avtogidro-podyomnik, yuk mashinasi krani, g‘ildirakli traktor, bitta kovshli ekskavator texnikalarini boshqarish bo‘yicha mutaxassislar yetishtirilishini qo‘shimcha qildi.

“Vatanparvar” tashkiloti sportchilari nafaqat respublika, balki MDH, Osiyo va jahon chempionatlarida yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritayotgani, tashkilotning harbiy-vatanparvarlik tadbirlari va sport musobaqalarida toblangan ko‘plab yoshlar hayotda o‘zlarini topayotgani e’tirof etildi.

Shuningdek, uchrashuv doirasida davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi G‘ijduvon tumani o‘quv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan yangi o‘quv avtodromi foydalanishga topshirildi.

Tadbir davomida viloyat kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga yangi xarid qilingan 30 ta “Onix”, 7 ta “KIA Sonet”, 5 ta “Foton” rusumidagi avtomobillar va 5 ta mototsikl topshirildi. Endilikda ushbu o‘quv avtomototransport vositalaridan “A”, “B”, “BC” va “C” toifalari bo‘yicha haydovchilik kasbiga o‘qitilayotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadi.

Sport musobaqasi

Farg‘ona shahrida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan erkin uchar va radioboshqaruvli aviamodellari sporti bo‘yicha O‘zbekiston kubogi musobaqasi o‘tkazildi.



ENG YAXSHI AVIAMODELLAR – SHOHSUPADA...

Ochiq maydonda tashkil etilgan musobaqada Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 70 dan ortiq sportchi o‘zlari yasagan erkin uchar va radioboshqaruvli aviamodellarning uchish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Jamoalar ikki kun mobaynida o‘zaro bellashib, quyidagi o‘rinlarga loyiq ko‘rildi:

F-1-A sinfida:

1-o‘rin: Ayder Bekirov *(Toshkent v.);*
2-o‘rin: Mariya Karaulova *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Aleksey Bundin *(Toshkent v.).*

F-1-B sinfida:

1-o‘rin: Bobur Hamidov *(Toshkent v.);*
2-o‘rin: Alisher Mirzayev *(Farg‘ona v.);*
3-o‘rin: Akmaljon Obidov *(Andijon v.).*

F-1-C sinfida:

1-o‘rin: G‘ayrat Kalonov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Shamil Bakov *(Farg‘ona v.);*
3-o‘rin: Yuriy Kiselyov *(Toshkent sh.).*

F-3-J sinfida:

1-o‘rin: Ayder Bekirov *(Toshkent v.);*
2-o‘rin: Akmaljon Obidov *(Andijon v.);*
3-o‘rin: Umidjon Tojimaxamatov *(Toshkent sh.).*

F-3-A sinfida:

1-o‘rin: Valeriy Vardanyan *(Farg‘ona v.);*
2-o‘rin: Umidjon Tojimaxamatov *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Mansur Sobitov *(Toshkent v.).*



F-5-B sinfida:

1-o‘rin: Mansur Sobitov *(Toshkent v.);*
2-o‘rin: Stanislav Smirnov *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Bobur Hamidov *(Toshkent v.).*

Jamoa hisobida birinchi o‘ringa Farg‘ona viloyati loyiq ko‘rildi. Ikkinchi o‘rin Toshkent viloyatiga nasib qilgan bo‘lsa, uchinchi o‘rinni Toshkent shahri jamoalari egalladi.

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlarga “Vatanparvar” tashkilotining diplom va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, tashkilot bir qator xalqaro sport tashkilotlari, jumladan, Xalqaro aeronavtika federatsiyasi (FAI)ning to‘la huquqli a’zosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Bellashuv





MAHORATGA UYG‘UN *innovatsiya*

Bugungi kunda mudofaa va xavfsizlik sohasida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, harbiy xizmatchilarning texnik bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish eng muhim vazifalarimizdan biriga aylanib bormoqda.



Xususan, Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligiga qarashli Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida joylashgan harbiy qismlarning birida harbiy xizmatchilar o‘rtasida dron texnologiyalari bo‘yicha musobaqa o‘tkazildi.

Bahslarda harbiy qismlardan saralab olingan jamoalar o‘zaro kuch sinashdi. Musobaqa davomida ishtirokchilar uchun turli murakkablikdagi shartlar berildi. Har bir jamoa texnik tayyorgarlik, aniqlik, tezkorlik va boshqaruv mahoratini amalda namoyon qildi. Ayniqsa, dronni belgilangan yo‘nalish bo‘ylab boshqarish, sun’iy to‘siqlardan muvaffaqiyatli o‘tish, murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi vazifalar ishtirokchilardan yuqori darajadagi diqqat-e’tibor va puxta tayyorgarlikni talab etdi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bahslarda yurt o‘g‘lonlarining nafaqat texnik bilimlari, balki sabr-toqati, diqqatni jamlay olish qobiliyati va bosim ostida vazmin harakat qilish ko‘nikmalari ham sinovdan o‘tdi.

Ushbu musobaqa harbiy xizmatchilarning nazariy bilimlarini amalda bajarish barobarida, harbiy qismlar o‘rtasida tajriba almashish imkoniyatini ham yaratdi. Eng muhimi, bunday bellashuvlar harbiy xizmatchilarda yangilikka intilish, o‘z ustida ishlash, texnik bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musobaqa so‘ngida eng tezkorlar aniqlab olindi.

Seminar mashg‘uloti

Ilmiy salohiyat – YUKSALISH OMILI

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi boshqaruv apparatida harbiy xizmatchilarni oliy ta’limdan keyingi ta’limga keng jalb etish va ularning ilmiy izlanishlarga qiziqishini oshirishga qaratilgan seminar mashg‘uloti o‘tkazildi.



Unda qo‘mondonlikka bo‘ysunuvchi qo‘shilma va harbiy qismlardan jalb etilgan harbiy xizmatchilar videokonferens-aloqa tizimi orqali ishtirok etdi. Seminarda Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining malakali mutaxassislari ishtirokchilarga o‘zlarini qiziqtirgan savollar yuzasidan zarur ma’lumotlar berdi.

Muloqotlar davomida qatnashchilarga oliy ta’limdan keyingi ta’limning mazmun-mohiyati, asosiy shakllari hamda ilmiy darajaga ega bo‘lish uchun belgilangan talablar haqida zaruriy tushunchalar berildi. Shuningdek, xizmat faoliyatini ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlashtirish, amaliyotda uchrayotgan muammolarni ilmiy jihatdan o‘rganish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish masalalari yuzasidan ham fikr-mulohazalar almashildi.

Aytish kerakki, bunday uchrashuvlar harbiy xizmatchilarning ilmiy faoliyatga qiziqishini oshirish, ularni izlanishga undash va o‘z ustida muntazam ishlashga rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shahnoza SULTONOVA, TOQQQ matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Kitobxonlik tanlovi

G‘OLIB KITOBXONGA “BYD” AVTOMOBILI

Shiddatli va tahlikali globallashuv davri harbiy xizmatchidan po‘latdek jismoniy chiniqish bilan birga o‘tkir zehn, tiniq fikr, yuksak ma’naviy salohiyat va mustahkam mafkuraviy immunitetni talab etmoqda. Bugun soha oldiga qo‘yilgan eng ustuvor vazifa Vatan himoyachilarini milliy va jahon adabiyotining noyob durdonalari bilan oshno etish, ularning dunyoqarashini boyitish hamda axborot-kutubxona xizmatlarini tubdan yangi bosqichga ko‘tarishdir.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-apreldagi “Qurolli Kuchlar tizimida respublika kitobxonlik tanlovini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilar o‘rtasida kitobxonlikni keng ommalashtirish, ularning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, faol harbiy kitobxonlar safini kengaytirish hamda munosib rag‘batlantirib borish tizimini yo‘lga qo‘yishda dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur tarixiy qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Mudofaa vazirligi tizimida keng ko‘lamli sa’y-harakatlar boshlanib, “Ma’naviyat qalqoni” respublika kitobxonlik tanlovi e’lon qilindi.

Harbiy xizmatchilar, oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari va harbiy akademik litsey o‘quvchilari ishtirok etadigan ushbu nufuzli ma’rifiy tanlovni yuqori saviyada, uyushqoqlik bilan tashkil etish uchun qo‘shinlarda Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va madaniyat departamenti mutaxassislari ishtirokida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, barcha harbiy okrug va garnizonlardagi kutubxonachilar hamda madaniyat markazlari xodimlari uchun maxsus amaliy yig‘inlar tashkil etilib, uslubiy ko‘rsatmalar berildi. Tanlov ishtirokchilari uchun mamlakatimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalaridan iborat kitoblar ro‘yxati shakllantirilib, har bir harbiy qism va muassasaga ushbu adabiyotlarning bosma hamda elektron namunalari to‘liq yetkazildi.

Eng muhimi, tanlov g‘oliblarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi yuksak darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, saralash bosqichlaridan o‘tgan, o‘z bilimini amalda namoyon etgan ishtirokchi yakunda mamlakatimiz rahbari tomonidan bosh sovrin sifatida qo‘yilgan zamonaviy “BYD” avtomobili bilan taqdirlanadi. Bu, albatta, harbiy xizmatchilarning, ayniqsa, yoshlarning mutolaaga bo‘lgan shijoatini yanada oshirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, harbiy qism va muassasalarda kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib qilishdagi bu harakatlar o‘z natijasini beradi. Zotan, ma’naviy barkamol, bilimdon, yurt taqdiri uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga har lahza tayyor bo‘lgan vatanparvar harbiy kadrlarni tarbiyalashning eng kuchli quroli ham aynan bilim va intilishdir.

Murodjon RO‘ZIBOYEV,
Ma’naviyat va madaniyat departamenti yetakchi mutaxassisi

MUSTAHKAM HAMKORLIKDAGI *yutuqlar*



Barcha yurtdoshlarimiz qatori mamlakatimiz davlat mustaqilligining 35 yillik shodiyonasini munosib kutib olgan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Toshkent viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiyo‘l shahri o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi ham ayni kunlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish borasida muayyan natijalarga erishib kelmoqda.

Ayniqsa, bunday jo‘shqinlik O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlab "Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda o‘z ifodasini topmoqda. Chunki bu sa’y-harakatlar zamirida yoshlarning ona Vatanga sodiq, ongli fuqarolar sifatida shakllanishiga ko‘maklashish, ularning qalbida vatanparvarlik g‘oyalarini kamol toptirishdek ezgu maqsadlar mujassamdir.

Ta’kidlash joizki, markaz jamoasining turli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada, ayniqsa, shahar mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, Yoshlar ishlari agentligi hamda harbiy qismlar bilan mustahkam hamkorligimiz yutuqlar poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu kunlarda tashkilotda yoshlar sportning texnik va amaliy turlari bilan shug‘ullanishlari uchun ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayni paytda bu yerda "Havo miltig‘idan o‘q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalar faoliyat ko‘rsatib, ularda o‘ttizga yaqin yosh muntazam ravishda shug‘ullanmoqda. O‘z navbatida, havaskor sportchi yoshlar o‘tasida shahar va viloyat miqyosida





turli musobaqalar tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda tashkilotda haydovchilar tayyorlash jarayoni ham talab darajasida tashkil etilgan. Bo‘lajak haydovchilar bilim olishi uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Markazimizda texnika ilmini puxta egallagan mutaxassislar talaygina. O‘z navbatida, ularning mahoratlaridan samarali foydalanilmoqda. Tajribali o‘qituvchi va amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalar bo‘lajak haydovchilarga avtomobillarni mohirlik bilan boshqarish sir-asrorlarini qunt bilan o‘rgatmoqda.

Nazirjon SAIDOV,
"Vatanparvar"
tashkiloti
Yangiyo‘l shahri O‘STM
NTM direktori

"Vatanparvar" tashkiloti Yangiyo‘l shahri o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi barcha xohlovchi yoshlarni "B", "BC", "CE" toifali haydovchilik kurslariga, shuningdek sportning texnik va amaliy turlari – "Havo miltig‘idan o‘q otish", "Yozgi biatlon" kabi to‘garaklarda shug‘ullanishga taklif etadi.



Yangiyo‘l shahri
Samarqand ko‘chasi, 44-uy.

97 729-28-38;
88 345-70-05.







TARG‘IBOT *va natija*

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Urganch shahri 2-sonli o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlarning har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishlari, shuningdek ular qalbida Vatanga mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.







Xususan, tashkilotda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar tizimli, bosqichma-bosqich samarali tashkil etilmoqda. Shu maqsadda shahrimizdagi mahallalar, o‘quv muassasalari va boshqa tashkilotlarda “O‘zbekiston – Vatanim manim!”, “Ochiq eshiklar kuni”, “Uch avlod uchrashuvi” kabi mavzularda hamda sportning texnik va amaliy turlari bo‘yicha ko‘rgazmalar namoyishi muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Chunonchi, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va umumta’lim maktablari o‘quvchilar o‘rtasida “Yo‘l harakati qoidalarining yosh bilimdoni”, “Piyoda –umring bo‘lsin ziyoda!” mavzularida viktorinalar hamda targ‘ibot tadbirlari tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti doirasidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham ko‘tarinki, bayramona ruhda o‘tkazildi.

Ma’lumki, yoshlarni Vatanga sadoqatli, jismonan hamda ma’nan sog‘om qilib tarbiyalashda sportning o‘rni beqiyos. Tashkilot a’zolari bo‘lgan Nikolay Sharabayev, Sodiqjon Jabborov, Tohirjon Sodiqov, Maksim Aripov, O‘g‘iljon Raimbergenova singari sportchilarimiz bir necha bor nufuzli musobaqalarda mamlakatimiz hamda viloyatimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.



Markazda shu kunlarda “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Duatlon”, “Motokross” kabi seksiya va to‘garaklar faoliyat olib bormoqda. Joriy yilning o‘tgan oylari mobaynida tashkilot a’zolari o‘rtasida bir necha bor sport musobaqalari o‘tkazildi. Albatta, sport tadbirlari shahar hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari bilan hamkorlikda o‘tkazilmoqda.

Ayni paytda markazimizda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE”, “D” toifali haydovchilar hamda radiotelefonchilar tayyorlanmoqda. Shuningdek, haydovchilar malakasini oshirish kurslari ham tashkil etilgan.

Albatta, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun tashkilotimiz yetarli moddiy-texnik bazaga ega. Zamonaviy sinfxonalar, zarur shart-sharoitlar, barcha kerakli texnik qurilmalar hamda avtomototransport vositalari bilan ta’minlangan. Bu omillar, o‘z navbatida, bo‘lajak haydovchilar malakasini oshirishda har tomonlama qo‘l kelmoqda.

Ulug‘bek JABBOROV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Urganch shahri 2-sonli
O‘STM NTM direktori

REKLAMA

MUSHTARAK MAQSAD *yo‘lida*

Ma’lumki, keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Buni tashkilotning birgina Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Samarqand shahri 2-sonli o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi faoliyatida ham ko‘rish mumkin.









Xususan, markazda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to‘garaklari ishini yo‘lga qo‘yish, musobaqalar tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday ishlar salmog‘i, ayniqsa, jonajon Vatanimiz davlat mustaqilligining 35 yillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, yosh vatanparvarlar sportning texnik va amaliy turlaridan “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon”, “Triatlon” kabi muhim turlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Bundan tashqari, 2026-yilning o‘tgan oylari mobaynida markazimizda haydovchilar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish borasida ham birmuncha salmoqli ishlar qilindi. Belgilangan reja asosida “B”, “BC”, “CE” toifali haydovchilar tayyorlash sifati va samaradorligi oshirildi. Shuningdek, markaz jamoasi tomonidan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish ishlari ham yaxshi tashkil etildi.

Yana bir muhim e’tirof, yaqinda mazkur o‘quv sport-texnika markazi va Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Shu munosabat bilan viloyatdagi harbiy qismlarning birida harbiy xizmatchilar bilan uchrashuv o‘tkazildi. Tadbirda imzolangan memorandumga asosan endilikda muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlar ixtiyoriy ravishda “Vatanparvar” tashkiloti tizimidagi avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kurslarida hamda ”Texnik xizmat ko‘rsatish mutaxassislarini tayyorlash kurslari”da o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishi tushuntirildi va ro‘yxatlar shakllantirildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Samarqand shahriga yo‘lingiz tushsa, ezgu maqsad yo‘lida fidokorona faoliyat ko‘rsatib kelayotgan 2-sonli o‘quv sport-texnika markazi jamoasi faoliyatidan xursand bo‘lishingiz aniq...

Alisher USMANOV,
“Vatanparvar” tashkiloti Samarqand shahri 2-sonli O‘STM NTM direktori

“Vatanparvar” tashkiloti Samarqand shahri 2-sonli O‘STM NTM jamoasi barcha yoshlarni “B”, “BC”, “CE” toifali haydovchilik kurslariga o‘qishga, shuningdek sportning texnik va amaliy turlari: “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon”, “Triatlon” kabi to‘garaklarda shug‘ullanishga taklif etadi. Mashg‘ulotlar malakali va tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi.







Xizmatlar litsenziyalangan

Samarqand shahri
Dahbed ko‘chasi, 33-uy.

55 705-21 00;
88 626-99-99.



MUSTAHKAM POYDEVOR

Bugungi kunda Oltinsoy tumanida ham barcha sohalarda bo‘lgani kabi ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Bunda bevosita O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi tuman o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasining ham munosib hissasi bor.






– Tashkilotimizning asosiy maqsadi mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga ko‘maklashish, yoshlar va fuqarolarni mehnatga hamda Vatanni himoya qilishga tayyorlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi vazifalarni bajarishda davlat tashkilotlariga ko‘maklashishdan iboratdir, – deydi markaz direktori Murodilla Abdunazarov. – Shu bois ham markaz jamoasi hamkor tashkilotlar ko‘magida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida xayrli ishlarni olib bormoqda. Jumladan, harbiy xizmatga chaqiriluvchi yoshlarni sog‘lomlashtirish, ularni sportning harbiylashgan turlariga ko‘proq jalb qilish maqsadida turli musobaqalar tashkillashtirilmoqda.

Chunonchi, mamlakatimiz davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlab “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida turli ma’naviy va sport tadbirlari o‘tkazilayotgani shular sirasidandir.

Ma’lumki, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda bo‘lajak haydovchilarning bilimli va malakali bo‘lishlari juda muhimdir. Sinfxonalardagi yangi zamonaviy o‘quv jihozlari, tashkilotning o‘quv-mashq avtomobillari bilan to‘liq ta’minlanishi, bir so‘z bilan aytganda, o‘quv-moddiy bazaning mustahkamlanishi tinglovchilarning mahoratini oshirish yo‘lidagi izlanishlar debochasi. Shu bois ish samaradorligini oshirish maqsadida avtomobillar parki turli rusumdagi zamonaviy o‘quv avtomobillari bilan kengaytirilyapti. Bunday sa’y-harakatlar, o‘z navbatida, o‘quv jarayoni sifatini yaxshilab, “B”, “BC”, “CE” toifali haydovchilar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda, markazda hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, harbiy qismlar bilan izchil hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Albatta, bu harakatlar zamirida yoshlarimizni Vatanimizning sodiq fuqarolari sifatida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar yotadi.

YOSHLAR UCHUN
keng imkoniyatlar



So‘nggi yillarda yurtimizda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bunday ezgu ishlar O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Kattaqo‘rg‘on shahri o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi faoliyatida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Tashkilot a’zolari bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik targ‘ibotini izchil olib bormoqda. – Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad shahrimiz yoshlarini vatanparvarlik va ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlarini hozirgi davr talabi asosida tashkil etishdan iboratdir, – deydi markaz direktori Alijon Temirov. – Shu bois ham markaz a’zolari bo‘lgan yoshlar ishtirokida turli sport musobaqalari hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar muntazam ravishda tashkil etilmoqda. Chunonchi, “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida o‘tkazilgan tadbirlar ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va ular kamolotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu kunlarda markazda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, sport to‘garaklari ishini yo‘lga qo‘yish borasida ham qator amaliy ishlar qilinmoqda. Mavjud sport seksiyalari shahar yoshlarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlarida keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

Bundan tashqari, yangi o‘quv yili boshlanishi munosabati bilan o‘quvchi-yoshlar va aholi orasida yo‘l harakati qoidalari borasidagi targ‘ibot va tashviqot ishlari ham namunali tashkil etilmoqda. Bu borada shahar IIB, JXX, YHX bo‘linmasi xodimlari bilan hamkorlikda turli tadbirlar, uchrashuvlar va suhbatlar o‘tkazilmoqda. O‘z navbatida, bunday tadbirlar har bir yo‘l harakati ishtirokchisidan yo‘llarda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda harakat qilishga undamoqda.



Ayni paytda tashkilotda nomzodlar “A”, “B”, “BC”, “CE” toifali haydovchilik kurslarida ta’lim olmoqda. Ta’kidlash joizki, malakali haydovchilar tayyorlash uchun tashkilot yetarli moddiy-o‘quv bazaga ega. Zamonaviy o‘quv avtomobillari va boshqa mavjud imkoniyatlar bo‘lajak haydovchilar malakasini oshirishga xizmat qilmoqda.



Akbar ALLAMURODOV

Millat fidoyilari

BOYSUNNING *bahodir o‘g‘loni*



Ota-ona borki, farzandini ezgu niyatlar ila ulg‘aytiradi, istiqboliga nurli orzular bog‘laydi. Kasb-korli, mehr-oqibatli, el nazarida bo‘lishini, nomi yaxshilar qatorida tilga olinishini istaydi. Himmat opa ham Mashrabjonni dunyoga keltirganida Xurram aka bilan shunday orzular qilgani aniq. To‘g‘ri, bugun Mashrabjon oila davrasida, tengqurlari orasida yo‘q, Vatan himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan. Biroq necha yillar o‘tmasin, uning nomi hurlik yo‘lida shahid ketgan jasur o‘g‘lonlar qatorida tilga olinishini onaizor yaxshi biladi.

Vatan deb yonganlar so‘nmagay aslo,
Xalqim deb kuyganning boqiydir umri.
Tunda yulduz bo‘lib taratar ziyo,
Tonglarni uyg‘otar jannatiy nuri.

Darhaqiqat, yillar o‘tar, avlodlar almashar, ne-ne umrlar yo‘qlikka yuz tutar, ammo Vatan ozodligi, millat erki yo‘lida bahshida etilgan jonlar yil-u asrlarni ortda qoldirib yashayveradi, nomini mangulikka muhrlayveradi. “Jasorat” medali sohibi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Mashrabjon Jo‘rayev mana shu unutilmas insonlar safidan joy olgan mardlardan biri.

UNUTILMAS XOTIRALAR

Himmat opa Mashrabjonning suratini qo‘liga oldi. Qaddi-basti kelishgan harbiy libosdagi xushsurat o‘g‘lon volidasiga mehr ila boqib turibdi. Ona qo‘llari titragan ko‘yi o‘g‘lining yuzi, qosh-ko‘zlarini siladi. “Uning ko‘zlari bolaligida ham chiroyli, kipriklari uzun edi”, xo‘rsindi Himmat opa. Ko‘z oldida beixtiyor Mashrabjonning bolaligi gavdalandi:

– Namuncha tong sahar turib olmasang, bolam. Maktab vaqtiga hali ancha bor, – birinchi sinfga kirgan Mashrabjonga tushuntirdi Himmat opa. – Yana ozgina uxlagin, o‘zim uyg‘otaman.

– Yo‘q, men maktabga birinchi bo‘lib borishim kerak. Shuning uchun hammadan yaxshi o‘qiyapman. Nonushta qilib olsam bo‘lgani.

– Tavba, akalaringni maktabga uyg‘otolmay halak bo‘lardim. Sen boshqacha chiqding-da. Har kuni erta uyg‘onasan...

Ana, sho‘x, shaddod Mashrabjon maktabdan bir to‘p o‘rtoqlari bilan kirib keldi.

– Onajon, issiq non yopdingizmi? Hammamizning qornimiz och, non bering.

– Hozir, hozir, bolam, – bu holga ko‘nikib ketgan Himmat opa barkashdek nonni ushatib, bolakaylarga tarqatishga tushdi...

Mana, u o‘smir yoshida. Doim orqasi to‘la o‘rtoq. Maktabdan kela solib, so‘mkasini qo‘ydi-da, tandirga somsa yopayotgan onasining oldiga shoshildi.

– Onajon, qachon pishadi somsalar?

– Kutib tursang, hozir pishadi, – xayoli do‘stlarida bo‘lgan betoqat o‘g‘lining dardini tushungan ona, ko‘cha darvozasidan birin-ketin bosh chiqarib turgan o‘rtoqlari tomon jilmayib qo‘ydi.

– Hech kim somsani sizchalik shirin pishira olmaydi, mehribonim, – Mashrabjon onasiga xushomad qilish asnosida, savatga uzib tashlayotgan somsalarni ko‘chaga tashiy boshladi. – Bobur bilan Sheraliga olib bordim, endi Nurali bilan o‘zimga.

– Hoy, qo‘ling kuyib qoladi, hovlidagi so‘rida o‘tirib yesalaring bo‘lmaydimi, a? – qaynoq somsalarni u qo‘lidan bu qo‘liga olib “kuf-kuf”lab ketayotgan o‘g‘linig orqasidan gapirgancha qoldi Himmat opa. – Tavba, bu bola kimga o‘xshadi-ya, o‘rtoqlarisiz tomog‘idan ovqat o‘tmaydi...

Mashrabjon umumta’lim maktabini tamomlash arafasida. Maqsadi – harbiy xizmatchi bo‘lish.

– Toshkentdagi harbiy bilim yurtiga hujjat topshirmoqchiman, – ota-onasiga yuzlandi u. – Sizlar rozi bo‘lgansiz, sportdan yaxshi tayyorgarlik ko‘rganman, imtihonlardan, albatta o‘taman. Bugunoq tuman mudofaa ishlari bo‘limiga uchrashaman.

– Mayli, omadingni bersin, bolam, – duo qildi Xurram aka.

Afsuski, o‘shanda o‘t-olov yigitga harbiy bilim yurtiga kirish nasib etmadi. Kutilmaganda, oyog‘i lat yeb, jismoniy tayyorgarlikdan o‘ta olmadi. Ammo ortga chekinmadi, u. Bir yigitga yetmish hunar oz, deganlaridek Boysun tumanidagi qishloq xo‘jalik kollejiga o‘qishga kirdi. Kollejni tugatgach, muddatli harbiy xizmatga otlandi. Xizmatdan so‘ng kontrakt bo‘yicha posbonlik burchini davom ettirdi...

– Mashrabjon bolaligida rosa sho‘x bo‘lgan, – dilbandining unutilmas xotiralarini biz bilan bo‘lishadi Himmat opa. – To‘rt-besh yoshlarida faqat harbiylarga xos o‘yinchoqlar o‘ynardi. Miltiq, tank, pistolet, askar o‘yinchoqlar oldirardi. Ofitser bo‘lishni niyat qilgandi, bolam. Askarlik xizmatini Toshkentda o‘tadi. Termizdagi harbiy qismga kontrakt bo‘yicha oddiy askar bo‘lib xizmatga kirdi. Har hafta uyga kelardi. U juda ozoda, harbiy libosiga e’tiborli edi. “Qora shahzoda” degan duxini yaxshi ko‘rib, doim o‘shani ishlatardi. Mashrabjonning uyga kelganini qo‘shnilar mana shu atir hididan sezardi. Har kelganida “Onajon, ellikka kiryapsiz, ish qilavermang, sog‘lig‘ingizni o‘ylang”, deb ko‘p gapirardi. Bir gal kelganida men uchun soch bo‘yog‘i olib kelib, opalariga onamning sochini bo‘yab qo‘yinglar, deb tayinlabdi. Jigarlariga mehribonligini aytmaysizmi. Mashrabjon olamdan o‘tgandan keyin, ukasi Sanjar ruhan tushkunlikda kasal bo‘lib qoldi. Kamgap, hardamxayol, atrofdagilar bilan muloqoti yo‘qoldi. O‘ziga keltirib olishimiz oson kechmadi...

Himmat opa gapirgani sari Mashrabjon bilan bog‘liq yangi-yangi xotiralar chiqib kelaveradi. 22 yoshida bu dunyoni tark etgan o‘g‘loni hamon onaning yurak to‘rida yashamoqda.

QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI

2001-yilning 14-iyuli. Sariosiyo tumanining tog‘li hududlarida chegarani buzib o‘tgan jangarilarni topish maqsadida Mashrabjon va safdoshlari razvedka qidiruv harakatlariga jalb etildi. U professional harbiy xizmatchi sifatida tog‘larda olib borilgan jangovar topshiriqlarda avval ham ishtirok etgan. Harbiy harakatlarda shaxsiy tarkibga o‘rnak bo‘lgan. Bu gal esa... Dushman pistirmasiga duch kelib, safdoshlariga xabar berayotganda bosqinchilar o‘qi uni yaraladi. Shunga qaramay, qo‘l granatasini iblislar uyasi tomon uloqtirdi. Harbiy xizmatchilar tomonidan terrorchilar to‘dasi yo‘q qilindi. Bu payt Mashrabjon Jo‘rayev qahramonlarcha halok bo‘lgandi.

Sinfdoshi va safdoshi Shavkat Jo‘lliyevning xotiralari:

– Men do‘stim Mashrab bilan maktabda ham, qishloq xo‘jalik kollejida ham birga o‘qiganman. U doim a’lochilar safida bo‘lgan. Ayniqsa, sportni sevardi, ko‘p shug‘ullanardi. Harbiy qismda esa qo‘rqmasligi, jur’atliligi bilan safdoshlarimiz orasida ajralib turardi. Bir necha bor jangovar topshiriqlarni bajarishda shaxsiy tarkibga o‘rnak bo‘lgan. 2001-yilning 14-iyuli aslo yodimdan ko‘tarilmaydi. Pistirmadagi dushman Mashrabning sezib qolganini bilgan zahoti, uni o‘qqa tutgan. Qo‘lidagi granatani uloqtirib, keyin yiqildi, do‘stim. U ko‘z oldimda jon berdi. Hayotda bundan-da ayanchli holat bo‘lmasa kerak. Aqlimni tanibmanki, men u bilan birga edim. U umrbod mening qalbimda, xotiramda yashaydi.

Mardlar siymosi barhayot, deyishadi. Bugun “Jasorat” medali sohibi Mashrab Jo‘rayev o‘qigan 27-umumta’lim maktabiga buyusti o‘rnatilgan, ma’naviyat xonasida qahramon yigitga bag‘ishlangan xotira burchagi tashkil qilingan. Uning xotirasiga bag‘ishlab sport musobaqalari o‘tkazib turiladi. Vatanparvarlik ruhidagi tadbirlarda uning nomi, albatta tilga olinadi, qahramonligi yosh avlodga o‘rnak qilib ko‘rsatiladi. O‘quvchilar va ustozlar Mashrabjon ulg‘aygan xonadonda bo‘lib, ota-onasi bilan suhbatlar o‘tkazadi.

– O‘g‘limning olamdan o‘tganiga 25 yildan oshgan bo‘lsa ham davlatimiz bizni unutgani yo‘q, doim e’tibor ko‘rsatib kelmoqda. Katta-katta tadbirlarga taklif qilishadi, e’zozlashadi. Mana shunday tadbirlardan birida Prezidentimiz bilan ko‘rishdim, g‘amxo‘rliklari uchun yelkalariga qoqib qo‘ydim. Buning uchun Yurtboshimizdan, bizdan xabar olib turgan barcha mehribon insonlardan cheksiz minnatdormiz.

Jo‘rayevlar xonadoniga davlat va jamoat tashkilotlaridan, harbiy qismdan, mudofaa ishlari bo‘limlaridan tez-tez mehmonlar tashrif buyuradi, yaqinlari davrasida Mashrabjonni xotirlashadi.

Ana, 48 yoshni qarshilayotgan do‘stlari Bobur Aliqulov, Sherali Xudoynazarov, Nurali Yo‘ldoshev maktabdagi Mashrabjonning buyusti oldida turibdi. Ular birga ulg‘aygan, shu maktabda birga o‘qigan. Buyustga termilgancha, sukut saqlayotgan yigitlarning dilidan bir haqiqat o‘tayotgani aniq: “U haqiqiy do‘st edi”. Ha, Mashrabjon haqida ularning nurli xotiralari juda ko‘p. Do‘stlarini o‘zidan-da ortiq ko‘rgan bunday yigitni unutib bo‘ladimi, axir. Do‘stlari goh jilmayib, goho homush tortib u bilan bog‘liq xotiralarni yodga olishadi.

Boysunning Chorvoq qishlog‘i. Ulug‘ yoshni qarshilayotgan Xurram aka va Himmat opa qo‘shaloq bo‘lib quyosh taftida choy ichib o‘tiribdi. Ular to‘rt o‘g‘il va ikki qizni voyaga yetkazdi. O‘n beshdan ziyod nabira, o‘ndan ortiq evara ularning ko‘z nuri. Qizlari Sanamxonning o‘g‘li serjant Sirojiddin Ramazonov bugun tog‘asi kabi Vatan himoyachilari safida. Voyaga yetayotgan bir qator nabiralari ham harbiy xizmatchi bo‘lishga astoydil bel bog‘lagan.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: kapitan Shohrux Saidov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6187
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 143 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT hamkorlikda “O‘zbekiston” NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya